

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

Navoiy davlat Pedagogika Instituti.

**Ilyasov.A.S
Shodieva O.M.**

**Odam anatomiyasi fanidan ma'ruza
matnlari va laboratoriya mashg`ulotlari
to`plami.**

(uslubiy qo`llanma)

Navoiy -2005y.

Ushbu uslubiy qo`llanma tibbiyotga aloqador bo`lmagan oliy o`quv yurtlarining biologiya, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat, boshlag`ich ta`lim va bolalar sporti, Kimyo ekologiya ta`lim yo`nalishidagi talabalar, tibbiyot kolleji o`quvchilari hamda o`qituvchilari uchun mo`ljallangan.

Taqrizchilar:
tibbiyot fanlari nomzodi Jakeshov E. I.

SamDTI Odam anatomiyasi kafedrasining docenti

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik
fakulteti «Umumiy biologiya» kafedrasini docenti
biologiya fanlari nomzodi Shamsidinova G. D.

**Ushbu uslubiy qo`llanma Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy kengashining
2005-yil _____ da bo`lib o`tgan _____sonli majlis qarori bilan
tasdiqlangan va chop etishga ruxsat berilgan.**

© Navoiy davlat pedagogika instituti

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish shu bilan birga ta'lim muassasalarida etuk kadrlarni tayyorlash maqsadida ushbu qo'llanma yaratildi.

Ushbu «Odam anatomiyasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari to'plami» nomli uslubiy qo'llanmada laboratoriya darslariga mo'ljallangan qirqqa yaqin mavzular yoritilgan bo'lib, unda: darsning maqsadi, kerakli jixozlar, ishning borishi hamda ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar alohida ko'rsatilib izohlangan.

Uslubiy qo'llanmada ba'zi bir murakkab laboratoriya mashg'ulotlari bir nechta tajribalarga bo'lib keltirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanmada laboratoriya sharoitida ishlash qoidalari, ularning jihozlari hamda kimyoviy reaktivlar, biologik preparatlar bilan ishlaganda amal qilinadigan xavfsizlik qoidalari keltirilgan. Shubilan birga laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishdan oldin mavzuga doir ma'ruza matnlari bilan boyitilgan. Uslubiy qo'llanmada har xil mikroskoplarda ishlash qoidalari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 2003 yilda chop etilgan «Odam anatomiyasi va fiziologiyasi» fanlari dasturi asosida tayyorlangan. Ushbu dasturdagi ko'rsatilgan laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari 5140400 biologiya va inson hayotiy faoliyati muhofazasi bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. Bu esa uz navbatida talabalarning laboratoriya mashg'ulotlarini dasturga muvofiq mukammal o'zlashtirishlari va o'z navbatida imtihon va bilim nazoratlaridan muvaffaqiyatli o'tishi uchun anchagina qulaylik yaratadi.

Odam anatomiyasi.

Anatomiya-odam tanasi organlari va organlar sistemalarining tuzilishini ularning bajarayotgan funkciyalari bilan bog'lab o'rganadi. Organlar tuzilishi ularning funkciyasini o'rganmasdan tushunib olish qiyin. Shu sababli ham bu fan fiziologiya faniga hamda gigiena qoydalariga o'zaro chambarchas bog'langan. Organlar va organlar sistemasining tuzilishi va funkciyalarini bilib olish, mehnat qilish va dam olishning gigienik shart-sharoitlarini asoslab berish, shuningdek sog'liqni saqlash, inson mehnat qobiliyatini oshishi hamda uning umrini uzaytirish uchun kasalliklarni oldini olish imqonini beradi.

Odam organizmining umumiy ta'rifi.

Hujayra-Odam organizmi ham barcha tirik organizmlar singari hujayralardan tashqil topgan. Hujayralar oralig'i moddasi hujayralarni pishiq va mustahkamligini saqlaydi. Ularni oziqlanishi va nafas olishini ta'minlaydi. Organizmdagi hujayralarning tuzilishi, katta-kichikligi, shakli va funkciyalari har xil bo'ladi, lekin ularning tuzilishi va xususiyatlarining bir qancha tomonlari o'xshash bo'ladi.

Hujayralarning kimyoviy tarkibiga turli mineral va organik moddalar: suv, mineral tuzlar, oqsillar, yog'lar, uglevodlar kiradi. Bu moddlar hujayraning hayotiy faoliyatiga juda muhim ahamiyatga ega.

To'qimalar-kelib chiqishi, tuzilishi va bajaradigan funkciyalari bilan bir-biriga o'xshash bo'lgan hujayralar va hujayra oralig'i moddasi tuqimlarni hosil qiladi. Organizmda epiteliy, muskul va nerv to'qima va biriktiruvchi to'qimalari mavjud. epiteliy tana qoplag'ichi va bezlarni hosil qiladi. Organlarning ichki yuzasini qoplab turadi. Terining ustki qavati, ichak, nafas yo'llarining ichki devori epiteliy to'qima bilan qoplangan. Bu to'qima organizmni zararli moddalar va mikroorganizmlar ta'siridan saqlaydi hamda organizm bilan tashqi muhit o'rtasida moddalar almashinuvini ta'minlaydi.

Biriktiruvchi to'qimada hujayra oralig'i moddasi ko'p bo'ladi, hujayralar tig'iz joylashmaydi. Bu to'qimalarga misol qilib tog'ay, suyak, qon va limfani ko'rsatish mumkin. Tog'ay to'qimasi suyaklarning bo'g'im qismida, umurtqalar oralig'ida va quloq suprasida joylashgan. Suyak to'qimasi suyakni hosil qiladi. Uning oraliq moddasi tolalar va mineral moddalar saqlovchi amorf moddadan iborat. qon va limfa suyuq biriktiruvchi to'qimani hosil qiladi.

Ular tayanch (tog'ay va suyak), oziqlantirish va himoya vazifasini bajaradi.

Muskul to'qimasi silliq va ko'ndalang targ'il muskul lardan tashqil topgan. Silliq muskul lar ichki organlar tarkibiga kiradi, ichak va qon tomirlari devorlarini qoplab turadi. U bitta yadroli, dugsimon 0,1 mm gacha uzunlikdagi hujayralardan tashqil topgan. Bu hujayralar sekin, ritmik ravishda qisqarish xususiyatiga ega. Ko'ndalang targ'il muskul lar skelet, til, ko'z, halqum, bo'g'iz muskul lari tarkibiga kiradi. Bu to'qima 10-12 sm uzunlikdagi alohida tolachalar joylashgan. Har bir tola ko'p yadroli hujayra bo'lib, uning citoplazmasida miofibrillar deb ataluvchi juda maydatolalar joylashgan. Miofibrillar qaramtir va oqish ko'ndalang chiziqlar ko'rinadi. Miofibrillar birga qo'shib boylamlarni, boylamlar esa muskul larni hosil qiladi. Muskul lar to'qimasi qo'zg'alishi va qisqarish xususiyatiga ega. Ularning bu xususiyatlari tufayli organizmning ichki organlarida harakatlanish yuz beradi.

Nerv to'qimasi nerv hujafali- neyronlardan hamda neyroglyidan iborat. Neyronlar hujayra tanasi va ikki xil citoplazmatik o'simtalardan tuzilgan. Ulardan biri uzun, shoxlanmaydigan aksondan, ikkinchisi esa shoxlangan o'simtalar dendritlardan iborat. Dendritlar qo'zg'alishni nerv tanasiga tomon, akson esa qo'zg'alishni neyronlardan boshqa hujayralarga va to'qimalarga uzatadi.

Organizmda har xil to'qimalar bir-biri bilan turlicha birikib organlarni hosil qiladi.

Organ odam organizmining bir qismi bo'lib, o'ziga xos muayyan shaklga, tuzilishga ega va ma'lum bir funkciyani bajarishga moslashgan bo'ladi. Organizmda kelib chiqishi va bajaradigan vazifasi bilan o'xshash bo'lgan organlardan organlar sistemasi tarikh topgan. Masalan: oziq moddalarni chaynab xazm qilish vazifasini bajaradigan (og'iz, halqum, ichak, jigar va boshqalar) ovqat hazm qilish sistemasi hosil qiladi. Odam organizmi qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, ayirish, ichki sekreciya bezlari, tayanch-harakat, nerv va jinsiy organlar sistemasidan iborat.

Mikroskop haqida umumiy ma'lumot.

Hujayra ichki tuzilishi, citoplazmadagi xarajatlarni kuzatishda lupaga qaraganda murakkabroq asbob-mikroskopdan foydalaniladi. Mikroskop buyumlarni ming marta va undan ko'p, zamonaviy mikroskoplar esa yuz ming marta kattalashtirib ko'rsatadi. Mikroskop ixtiro qilingach, tirik mavjudodlar, shu jumladan, (o'simliklar) odam organlari hujayralardan tuzilganligini aniq va ravshan ko'rish mumkin bo'ladi. Mikroskop orqali hujayralarni, organlar va organlar sistemalarini tuzilishini ko'rish, o'rganish oson bo'ladi.

Sodda tuzilgan mikroskoplar ko'rish nayiga joylashtirilgan linzalardan iborat. Nayning yuqorigi uchiga kattalashtirib ko'rsatadigan ikkita (qo'sh) linzali okulyar o'rnatilgan. Pastki uchiga bir necha linzali ob'ektiv qo'yilgan va u mikroskopda qo'yilayotgan preparatga yo'naltiriladi. Ko'rish nomi cho'yandan yasalgan og'ir taglikka o'rnatiladi. Nomi burama vint yordamida yuqorigi ko'tarish va pastga tushurish mumkin.

Taglikka o'rnatilgan o'rtasi teshik buyum stolchasi ko'rish nayining ostida to'g'ri keladigan qilib joylashtirilgan. Bu teshik orqali buyum stolchasi ostidagi ko'zguan ko'rish nayiga yo'naltirilgan yorug'lik nuri o'tadi. Yorug'lik nuri, o'z navbatida, buyum stolchasi ustidagi buyumni yoritib, so'ngra kattalashtiruvchi linzalardan o'tadi. Ana shu yorug'lik nuri ta'sirida preparatning kattalashtirilgan tasviri ko'rinadi.

Mikroskopni necha marta kattalashtirib ko'rsatishini bilish uchun ob'ektiv bilan okulyardagi sonlar bir-biriga ko'paytiriladi.

Masalan: okulyar 15x bo'lib, ob'ektiv 40x bo'lsa (15x40), buyum 600 marta kattalashtirilgan holda ko'rinadi.

Hozirgi zamon yorug'lik mikroskoplari ob'ektni 3000 martagacha kattalashtirish imkonini beradi. Yorug'lik mikroskoplari yordamida faqat fiksaciyalangan o'lik hujayralarigina emas, balki tirik hujayralarni o'rganish mumkin. Tirik hujayralarni o'rganishda faza-konstrast, polyarizatsion, lyuminescent mikroskoplardan foydalaniladi.

elektron mikroskoplarning kashf etilishi hujayra tuzilishi to'g'risidagi bilimlarning kengayishiga sabab bo'ladi. elektron mikroskopda yorug'lik o'rniga elektromagnit maydondan foydalaniladi. elektron mikroskop o'rganilayotgan buyumni yuz ming, hatto million marta kattalashtirishga imkon beradi. elektron mikroskop yordamida ilgari ma'lum bo'lmagan hujayralarning tarkibiy qismlari yanada chuqurroq o'rganilibgina qolmay, balki yangi muhim ma'lumotlar ham to'plandi, masalan: ribosomalar, endoplazmatik to'r, mikronaylar kashf etildi, plazmolemmaning nozik tuzilmasi yoki tuzilishi aniqlandi.

Labarotoriya ishi №1.

Mavzu: Mikroskopning tuzilishi va vazifasi bilan tanishish.

Maqsad: Mikroskop qismlari bilan tanishish, tuzilishi va vazifalarini o'rganish hamda mikroskopni ishlash jarayonini to'g'risida to'liq ma'lumot berish.

Kerakli jihozlar : yorug'lik, mikroskop, elektron mikroskop, tayoyr mikropreparatlar, okulyar, ob'ektiv, linzalar, planshet, tablicalar, plakatlar.

Ishning borishi: Labarotoriyadagi amaliy mashg'ulot jarayonida mikroskop bilan ishlash qoidalariga amal qilish zarur:

1. Mikroskop stol chekkasida 3-4 sm nariga (ichkariga) qo'yiladi.

2. Yumshoq toza quruq latta bilan dastlab okulyar, so'ngra obektiv linzalari hamda ko'zgu-nur to'plovchi oynalar artiladi.

3. Mikroskopning kichik obektivni (8x li) buyum stolchasining teshigi ro'parasiga keltirib, 0,5-1 sm balandlikda tutiladi.

4. Chap ko'z bilan okulyardan qarab, botiq oyna yorug' tushayotgan tomonga qaratilib, nurni obektiv tomon yo'naltiriladi. Obektiv bir tekis tiniq va to'la yoritilishi kerak. Bu jarayonlar yorug'lik mikroskopida bo'ladi. elektron mikroskopda yorug'lik o'rniga elektromagnit maydondan foydalaniladi.

5. Har qanday preparat oldin kichik obektivda kuzatiladi. Obektiv preparatdan 4-6 mm baland bo'lishi kerak. So'ngra okulyar orqali bir ko'z bilan kuzatib, ob'ektivdagi narsa ko'ringuncha mikrovin yordamida ohista tushirila boradi. Narsaning aniq tasviri ko'ringach, ob'ektivni tushirish yo ko'tarish to'xtatiladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar.

1. Mikroskop qanday qismlardan tashkil topgan?

2. Yorug'lik mikroskop hamda elektron mikroskop buyumlarni necha marta kattalashtirib ko'rsatishi mumkin?

Labarotoriya ishi №2

Mavzu: Odam organizmining shilliq pardasi hujayrasidan vaqtinchalik preparat tayyorlash va uni mikroskopda ko'rish.

Darsning maqsadi: Odam organizmi shilliq pardasi hujayralari haqida to'liq ma'lumot berish. Vaqtinchalik preparat tayyorlab, uni mikroskopda ko'rish.

Bu ish odam hujayrasini o'rganilayotganda bajariladi. Mikroskoplari etarli bo'lgan labarotoriya xonalarida hujayra preparatini tayyorlash va uni mikroskopda ko'rish yuzasidan darsdan tashqari labarotoriya ishlari o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Kerakli jihozlar: mikroskop buyum va qoplagich oynalar, spirt lampa, tomizgich, spirt, issiq qonli hayvonlarga mo'ljallangan eritma (osh tuzining 0.9 % li eritmasi), paxta, oynasiga rangli siyoh.

Ishning borishi: Spirt lampada qizdirilib va spirt bilan artilib, disenfekciya qilingan skalpelning o'tmas tomoni bilan labning ichki shilliq yuzasi sekin kiriladi. Kirindini toza buyum oynasidagi fiziologik eritma tomchisiga ko'chirilib, u bilan aralashtiriladi va qoplagich oyna bilan yopiladi. Agar preparat to'g'ri tayyorlangan bo'lsa, tiniq epiteliy hujayralari mikroskopda alohida va bir nechtasi g'uj holda ko'rinadi. Labning ichki yuzasidan olingan qirindida hujayralar tolpilmasi, til yoki lunj yoki tanglay yuzasidan olingan qirindi mikroskopda ko'riladi.

Hujayra yadrosini aniq ko'rish uchun buyum oynasidagi qirindiga suyultirilgan binafsha rang siyox tomizilib, 1-2 minut o'tgach. qoplag'ich oyna yopiladi.

Preparat mikroskopda ko'rilganda talaba hujayraning shakli va qismlari (qobiq, citoplazma va yadro)ni aniqlay olishi juda muhimdir. Buning uchun yaxshi tayyorlangan preparatlardan biri mikroskopning katta ob'ektiviga to'g'rilanadi va okulyari orqali talabalarga ko'rsatiladi. Labarotoriya mashg'uloti yakunida odam hujayrasi ham xayvon va o'simlik hujayralari kabi qobiq, citoplazma va yadrodan iborat degan xulosa chiqariladi.

Ishni rasmiylashtirishga oid tavsiyalar.

Mikroskopda ko`rilgan til yoki tanglaydan qirindini, ichki tuzilishlarini rasmini chizing.

Laboratoriya ishi № 3

Mavzu: Baqa terisidan olingan epiteliy to`qimasidan vaqtinchalik preparat tayyorlash va uni mikroskopda ko`rish.

Darsning maqsadi: Baqa terisidan olingan epiteliy to`qimasini talabalarga tanishtirish. epiteliy to`qimadan tayyorlangan vaqtinchalik preparatlarni mikroskopda ko`rish. epiteliy qoplag`ichi va bezlari hosil qiladi, organlarning ichki yuzasini qoplab turadi. U terining ustki qavat, ichak, nafas yo`llari ichki devori epiteliy to`qima bilan qoplangan.

Kerakli asboblari: Mikroskop, buyum va qoplagich oynalar, pincet, preparaval`nina, tomizgich, siyohga bo`yalgan baqa terisining epiteliy pardasi, stakanda toza suv.

Izox: Baqa terisining epiteliy pardasini olish uchun og`zi doka bilan berkitilgan shisha bankadagi suvda uni 1-2 kun saqlanadi (bankadagi suv baqani ko`mar – ko`mmas darajada bo`lsin). Shunda suv baqani oq yupqa prada parchalari hosil bo`ladi. U baqa terisidan ajralgan epiteliy to`qima pardasidir. Uni petri kosachadagi suvga ko`chirib hujayra yadrosi ko`rinsin uchun binafsha rang siyoh bilan bo`yaladi.

Ishning borishi: Och binafsha rangga bo`yalgan baqa terisining epiteliy to`qima pardasi idishdagi suv ichida turgan holda bir necha bo`lakchalarga ajratiladi va ulardan biri pincet yoki preparaval`nina uchi bilan buyum oynasidagi suv tomchisiga olinadi. Shundan keyin pardaning buklangan joylari to`g`rilanib, qoplagich oyna bilan yopiladi. Preparat mikroskop ostida qaralganda ko`p qirrali va zich joylashgan yassi hujayralardan iborat epiteliy to`qimasi ko`rinadi.

Laboratoriya mashg`uloti oxirida epiteliy hujayralarining bir-biriga zich turishi, ular orasida hujayralararo moddaning deyarli yo`qligi va shunday tuzilishi to`qimaning kimyoviy vazifasiga bog`liq ekanligi to`g`risida xulosa chiqariladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar.

Baqa terisidan olingan epiteliy to`qimaning mikroskopda ko`rinishini chizib oling.

Laboratoriya ishi №4

Mavzu: Biriktiruvchi to`qima preparatlarini tayyorlash va uni mikroskopda ko`rish.

Dasning maqsadi: Biriktiruvchi to`qima haqida ma`lumot berish, tayyorlangan mikropreparatlarni mikroskop orqali talabalarga ko`rsatish.

Biriktiruvchi to`qima organlar o`rtasida ko`prik bo`lib, ularni bir-biriga bog`laydi. Bu to`qimaga misol qilib, tog`ay suyak, qon va limfani ko`rsatish mumkin. Suyak va tog`ay to`qimasi organlar tayanchini ta`minlaydi. qon va limfa organizmning suyuq ichki muhitini hosil qiladi.

Biriktiruvchi to`qimaning tuzilishi to`g`risida talabalarda aniq tushuncha hosil qilish maqsadida teri ostidagi yumshoq biriktiruvchi to`qimadan yoki tog`ay to`qimasidan vaqtinchalik mikropreparat tayyorlab, uni mikroskop yordamida ko`rsatiladi.

Kerakli asboblari: Mikroskop, buyum va qoplagich oynalar, pinset, vannacha, Petri kosachasi, o`tkir skal`pel` yoki lezviya, preparoval`nina, tomizgich, yangi

o`ldirilgan baqa yoki biror kichik sut emizuvchi hayvon, suvli idish, suyultirilgan binafsha rang siyoh.

Ishning borishi: *1-tajriba.* Ichi yorilgan baqa yoki biror kichik sut emizuvchi hayvon terisi ostidagi yumshoq biriktiruvchi to`qimadan pincet bilan chimdib olingan va buyum oynasidagi suyultirilgan siyoh tomchisiga quyiladi, so`ngra qoplagich oyna bilan yopiladi. Preparat mikroskop ostida qaralganda bir-biridan uzoqda joylashgan alohida, juft va g`uj joylashgan har xil shaklli hujayralar va ular orasida tartibsiz joylashgan tolasimon hujayralar aro modda ko`rinadi.

2-tajriba. Baqaning soni yoki elka suyagi ajratib olinib, uning boshchasi bo`g`im haltachasidan tozalanadi. So`ngra suyak boshchasining yuzasi qoplab turgan tog`aydan skal`pel` yoki lezviya yordamida juda yupqa kesmalar kesib olinib, Petri kosachasidagi suyultirilgan siyohga solinadi. Bo`yalgan tog`ay kesmalaridan eng yupqasi buyum oynasidagi suv tomchisiga ko`chiriladi va qoplagich oyna bilan yopilib, mikroskop ostida ko`riladi. Bunda oval yoki doira shaklidagi yakka, juft va g`uj hujayralar va ular orasida quloq holdagi hujayralararo modda ko`rinadi.

Har ikkala preparatlar mikroskopda kuzatilganda biriktiruvchi to`qima hujayralari bir-biridan uzoqda joylashganligi va ularning orasi hujayra tuzilishiga ega bo`lmagan maxsus moddalar bilan to`lganligi xulosa tarzida ta`kidlanadi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar. Birinchi va ikkinchi tajribada ko`rilgan biriktiruvchi to`qima mikroskopda ko`rib izoh bering?

XARAKAT VA TAYANCH A`ZOLAR TIZIMI

Odam tanasini xarakatga keltiruvchi a`zolar 2 qismga bulinadi. Birinchisi faol xarakatini vujudga keltiruvchi muskullar, ikkinchisi passiv suyaklar va ularni birlashtiruvchi boylamlardir.

Tayanch va xarakatlar tizimi odam tanasi ogirligining 72,4%ini tashqil etsa shundan 1G`6 qismi suyaklar va 2G`5 qismi esa muskullardan iborat.

SUYAKLAR XAKIDA UMUMIY MA`LUMOT (OSTEOLOGIA)

Odam tanasidagi suyaklar majmuasi skeletni tashqil kiladi, skeletos – kuritilgan degan ma`noni anglatadi, uning ogirligi o`rtacha 5-6 kg, ya`ni tana ogirligining 8-10%ini tashqil kiladi. Skeletdagi suyaklar soni 200 dan ziyod.

Suyak (os- ossis) kattik va elastik bo`lib, asosan ikki turdagi moddalardan tashqil topgan. Suyakning 1G`3 qismini uning elastikligini ta`minlovchi organik moddalar, kolgan 2G`3 qismini suyakka kattiklik beradigan anorganik (kliciy tuzlari fosfat tuzlari) moddalar tashqil kiladi.

Suyakdagi elastiklikni (egiluvchanlikni) ossien moddasi ta`minlasa, mineral tuzlar uz navbatida, suyakka kattiklik (pishiklik) xususiyatini beradi. Suyaklar mustaxkamligi aynan organik va anorganik moddalarning fiziologik nisbatiga boglik va bu nisbat yoshga karab uzgaruvchan bo`ladi. Shu bois yosh organizmdagi suyaklar organik moddalarning (ossien va muguz) kupligi tufayli elastik (egiluvchan), kam sinadigan va mustaxkam bo`ladi, yosh ulgaygan sari (xayot davomida iste`mol kilingan mineral tuzlar xisobiga) suyak tarkibidagi tuzlar nisbati uzgarishi kuzatiladi, natijada keksa kishilarda suyakning elastiklik xususiyati yukolib murtlashadi va tez sinadigan bo`lib koladi.

Organik va anorganik moddalardan tashqari suyak tarkibida D vitamini va kalciy tuzlari etishmasligi raxit kasalligi kelib chikishiga olib keladi. Kasallik okibatida suyaklarda mustaxkamlik kamayadi, yosh suyakning usishi va rivojlanishi ishdan chikadi, shu bois suyaklarning xar tomonlama kiyshayish asorati kuzatiladi. Vitamin A etishmasligida suyaklar yugonlashib ichidagi bushlik va kanalchalar kengayadi. Ossien, mineral tuzlar va vitaminlar kushilishi natijasida suyak granitdan kattik, mis va pulatdek mustaxkam bo`ladi.

Olimlarning ma'lumotlariga kura vertikal xolatda suyaklar tonnalab yuk kutarishi mumkin.

Suyaklar tasnifi.

Suyaklar shakliga kura quyidagi guruxlarga bulinadi.

1-Naysimon. A. Uzun naysimon (elka, bilak tirsak, son suyaklari)

B. Kalta (kul va Oyoq panja suyaklari)

2-Govak. A. Uzun (kovurga, tush suyagi)

B. Kalta (umurtka, kul va Oyoq panja suyaklari)

V. Sesamasimon (tizzaga kopkogi va nuxasimon suyak)

3-Yassi. (peshona, tepa, ensa, kurak va chanok suyaklari).

Xar qaysi naysimon suyaklarning o`rta qismi diafiz (tanasi), oxirgi ikki uchlari tanaga yaqin uchlari proksimal epifiz va tanadan yirok uchi distal epifiz deb nomlanadi. Diafiz bilan epifiz oraligi metafiz deyilib, suyakning usish soxasiga tugri keladi. Suyakning oxirgi uchlardagi burtma, dumbok va shunga uxshash xosilalar apofiz deyiladi. Aynan shu xosilalarga boylamlarning birikishi suyak bugimini mustaxkamlasa, muskullar birikishi bugimdagi xarakatni yuzaga keltiradi.

Naysimon suyakning kundalang kesimi kuzdan kechirilganda, sirtki yuzasi suyak usti pardasi (periosteum) bilan koplangan, u ikki kavatdan iborat. Tashqi kavati yupka, pishik fibrioz tolalaridan tashqil topgan, uning ichki kavatidagi osteogen xujayralari suyakning eniga usishiga imkon beradi. Suyak pardasidagi teshiklar esa kon tomirlar va asab tolalari o`tdigan oziklantiruvchi teshik bo`lib xizmat kiladi.

Suyakning ichki tuzilishi 2 xil moddadan xosil bulgan.

Tashqi tomoni zich ya`ni, kattik (substantia com pacta) moddadan tuzilgan bo`lib suyak pardasi bilan bevosita birikadi, govak modda (sustantia spangiosa) suyakning ichki tomonida joylashgan bo`lib mayda-mayda turga uxshash katakchalar xosil kilib suyak kumigiga davom etadi. Unda kizil va sarik ilik xamda kon tomirlar talaygina bo`lib, suyak nayi (kanali)ga ochiladi.

Kalla skeletidagi ba`zi suyaklar tanasida bushliklar borligi bilan boshka suyaklardan fark kiladi va xavo saklovchi (pnevmosteum) suyaklar deb ataladi. Bunday suyaklarga peshona, ponasimon (asos), galvirsimon va yukori jag suyaklari kiradi, bushliklar kuz kosasi va burun bushligi atrofida joylashgan bo`lib uziga xos funksional xususiyat kasb etadi, ya`ni suzlashganda tovushni jarangdorligini xamda kalla skeleti engilligini ta`minlaydi. Chakaloklarda bu bushliklar shakllanmagan bo`ladi. Katta yoshdagilarda bu bushliklarda yiring yoki kon tuplangan xollarida tovush jarangdorligi buziladi va boshka asoratlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu xastalikni fakatgina jarroxlik usulida davolashga tugri keladi.

Suyaklarning vazifasi.

1-Tayanch vazifasi. Suyaklar organ va tukimalar uchun ustun xisoblanib, tana ogirligini kutaradi, unga shakl berib turadi.

2-Xarakat vazifasi. Suyaklar bir-biri bilan bugim xosil kilib boylamlar yordamida mustaxkamlanadi va muskullar yordamida xarakatga keladi.

3-Ximoya vazifasi. Suyaklar va suyaklar majmuasi (kukrak kafasi, kalla skeleti, umurtka pogonasi) ba'zi a'zalnari tashqi tomondan urab turadi, tashqi ta'surotlardan muxofaza kiladi.

4- Depo (zaxira) vazifasi. Suyaklar mineral tuzlarning zaxirasi xisoblanadi: suyak taribining 70%i mineral birikmalarga tugri keladi.

5- Kon yaratuvchanligi (gemopoez). Bolaning embrional davridan boshlab naysimon suyaklar bushligidagi kizil ilik konning shaklli elementlari (eritrocit, leykocit, trombocitlar)ni xosil kiladi, shu bois suyak kumigi kon yaratishning asosiy (markaziy) a'zosi xisoblanadi.

Suyaklarning rivojlanishi.

embrional davrda suyak tukimasi boshka tukimalarga nisbatan kechrok (6-8 xaftada) mezinxema (embrional biriktiruvchi tukima)dan xosil bulishi aniqlangan. Aksariyat suyaklar paydo bulishi birlamchi, ya'ni suyakning yosh xujayrasi osteoblastlardan paydo bo`lib, bunday suyaklanish endesman (en-ichida, desma- aloka) suyaklanish deyiladi, bunga kalla suyaklari xosil bulishi misol bo`ladi. Suyakning ikkilamch suyaklanishi esa tog`ay tukimasida rivojlanayotgan suyak xujayrasi (yosh ostiocid) paydo bulishi bilan boglik. Bunday suyaklanish perixondrial (peri-old, atrof chondro-tog`ay) suyaklanish deyiladi. Agar tog`ay tukimasini ichidan suyaklanish nuktasi paydo bulsa endoxondrial (endo-ichi, chondro- tog`ay) suyaklanish deyiladi.

Suyaklar arxitektonikasi.

Tana skeleti suyaklarning joylashishiga karab kuyidagicha bulinadi:

1. Gavda suyaklari:

A. Umurtka pogonasi (33-34 ta umurtkadan iborat)

B. Kovurgalar (12 juft).

V. Tush suyagi

2- Kalla suyaklari:

A. Yuz qismidagi suyaklar: burun, kuz yoshi, yonok, yukori va pastki jag, dimog va tanglay suyaklari.

B. Bosh qismi suyaklari: peshona, ensa, chakka, tepa, ponasimon, galvirsimon suyaklar.

3- Qo`l suyaklari:

A. Elka kamari suyaklari (o`mrov va kurak)

B. Kulning erkin suyaklari (elka, tirsak, bilak va kul panjasi suyaklari).

4- Oyoq suyaklari:

A. Oyoq kamari (chanok) suyaklari: yonbosh, kov va utirgich suyaklar.

B. Oyoqning erkin suyaklari: son, katta va kichik boldir suyaklari, Oyoq panjasi suyaklari.

Skeletning funkcionaxamiyatini xisobga olib, uning arxetektonikasini taxlil kiladigan bulsak, unda umurtka pogonasi muxim markaziy qismni egallaydi.

Bo`yin umurtkalari ensa suyagi bilan bevosita bugim xosil kilib birikadi, kukrak umurtkalarining kovurgalar bilan birikishi kukrak kafasini xosil kiladi. Uz navbatida kukrak kafasi elka kamari (o`mrov va kurak) suyaklari yordamida kulning erkin suyaklari bilan bugim xosil kilib birikadi.

Dungaza umurtkalari chanok suyaklari bilan birlashib yaxlit chanokni xosil kiladi. Chanok suyaklarining tanasida xosil bulgan sirka kosasi son suyagining proksimal uchi bilan bugim xosil kilib birikadi. Shu bois umurtka poganasi skeletning negizi deb karaladi.

Labarotoriyada jihozlar va moddalar bilan ishlaganda amal qilinadigan xavfsizlik qoidalari.

Tajriba o`tkazishda baxtsiz hodisalar sodir bo`lishining oldini olish uchun quyidagi havfsizlik qoidalariga qat`iy amal qilish lozim:

1. Labarotoriya tajribalari va amaliy ishlarni bajarayotgan paytda xonada keraksiz harakatlar qilmang. Bunga o`rtog`ingizga halaqit berishingiz mumkin. Hamma o`z joyida tartib va intizom bilan ishlashi, labarotoriya xonasi keng va yorug` bo`lishi, talabalar bir-birlariga halaqit bermasdan joylashishi lozim.

2. Ish joyingizni toza tuting. Tajriba bajarish paytida stol ustidagi keraksiz narsalarni chetga olib qo`ying.

3. Har bir ishni bajarishdan oldin uni bajarish yuzasidan berilgan yo`l-yo`riq bilan yaxshilab tanishib chiqing. Shundan keyingina ishni bajarishga kirishing.

4. Labarotoriya xonasida ovqat iste`mol qilish yoki labarotoriya stakanidan foydalanib suv ichish qat`iy ta`kidlanadi.

5. Moddalar va ularning eritmalari bilan ishlaganda ehtiyot bo`ling, ular teriga yoki kiyimga tomsa kuydirishi mumkin. Moddalar saqlanadigan idishlarning og`zini ochiq qoldirmang.

6. Jarohlik asboblari bilan ishlayotganda ehtiyot bo`ling.

7. Laborotoriya xonasida talabalar oq halat, boshlarida oq bosh kiyimi , qo`llariga rezina qo`lqoplar (Hayvonlarni operaciya qilayotgan paytda) kiyimlari zarur.

8. Ish oxirida labarotoriya idishlarni, ish ustoli ustini yig`ishtirib, tozalab qo`ying.

Laboratoriya ishi № 1.

Mavzu: Arralagan suyak preparatlarini tayyorlash.

Darsning maqsadi: Suyaklar haqida to`liq ma`lumot berish va arralagan suyak preparatlarni tayyorlashni talabalarga o`rgatish.

Suyaklar tashqi tuzilishiga binoan suyaklar naysimon va yassi suyaklarga bo`linadi. Hamma suyaklar qattiq tig`iz moddadan va g`ovak moddadan iborat. Uzun naysimon

suyaklarning tig`iz moddasi suyakning o`rta qismini, g`ovak modda uning ikki uchini egallagan. G`ovak modda ichida mayda teshiklar qizil suyak iligi bilan to`lgan.

Har xil arralangan suyaklarni Laboratoriya darsida suyaklarning tuzilishini o`rganish muhim omildir.

Kerakli asboblari: qisqich, mayda, tishli dastarra, skal`pel` yoki pichoq, qattiq tukli cho`tka, buzoq yoki qo`yning ichki g`ovak suyaklari.

Ishning borishi: qo`zi yoki buzoqning va boldir suyaklari pichoq, so`ngra qattiq tukli cho`tka bilan go`sht hamda pay qoldiqlaridan, suvda yuvib doka bilan yaxshilab artiladi. Keyin bu suyaklarni qisqichga o`rnatilib, mayda tishli dastarra bilan ularning kallasi va g`ovak qismi ko`ndalangicha va uzunasiga arralanadi. Suyaklar qanchalik yosh hayvonlardan olingan bo`lsa, ular shunchalik oson arralanadi.

Arralangan suyaklarni darsda ko`rsatish suyak muhim va murakkab organligi, xar bir suyakning tuzilishi, uning vazifasiga bog`liqligi haqida xulosa chiqarish imqonini beradi.

2-tajriba.

Mavzu: Kuydirilgan va kalciysizlantirilgan suyak preparatlari tayyorlash.

Darsning maqsadi: suyaklarning ichki va tashqi tuzilishi haqida talabalarga to`liq ma`lumot berish hamda kuydirilgan suyak preparatini tayyorlash.

Suyaklarning sirti yupqa ammo pishiq biriktiruvchi, to`qimadan iborat suyak pardasi bilan qoplangan bu parda suyak moddasi bilan mustahkam birikib ketgan. Suyakning qattiqligi pishiqligi va elastikligini ularning tarkibi belgidaydi.

Kerakli asboblari: mayda suyaklar (yirik baliq qovurg`alari yoki baqa, qush, quyon kabilardan birining son suyaklari), pincet, spirt lampa, probirka, staqon, 10 va 30 % li xlorid kislota ishlatilgan suyuqliklar tashlanadigan shisha banka, toza suvli idish.

Ishning borishi: suyakni kuydirish. Suyakning bir uchidan pincet bilan ushlab, ikkinchi tomoni spirt lampaga tutiladi. Bunda suyak qo`lansa hid chiqarib yona boshlaydi.

Labarotoriya darsida talabalar o`qituvchi topshirig`i bilan kuydirilgan suyakning xossalari unga qo`l tekkizish bilan tekshirib ko`radilar va uning oson uqalanib ketishini aniqlaydilar. Shundan keyin suyakning bir parchasini probirkaga solib, ustidan 30 % li xlorid kislota quyilganda suyak qo`l ining kislotada eriy boshlashi kuzatiladi. Bunda suyakning mineral qismidagi kalciy tuzlariga kislota ta`sir qilish natijasida SO₂ pufakchalar tarzida idishdan ajralib chiqa boshlaydi. Bu tajriba suyakda yonadigan organik modda va yonmaydigan, ammo kislotada eriydigan mineral moddalar borligi, mineral moddalar suyakning qattiq va mo`rt qilib turishi haqida xulosa chiqarish imqonini beradi. **Suyakning kalciysizlantirish.** Probirkaning uchdan bir qismiga qadar 10% li xlorid kislota quyiladi va unga bir bo`lak suyak solinadi. Bunadn SO₂ pufakchalar xolatida ajralayotganligi kuzatiladi. Oradan yarim soat o`tgach, probirkadan kislota bo`sh idishga to`qiladi, suyakni probirkadan olib, yaxshilab yuviladi va xususiyati o`rganiladi.

Labarotoriya ishi davomida talabalar kalciysizlantirilgan suyak juda yumshoq va elastik bo`lib qolganligi, uni egish, bukish va hatto tugun qilib bog`lash mumkinligini aniqlaydilar. Agar kattaroq suyak kalciysizlantirmoqchi bo`lsa, uni yuqoriroq qoncentraciyali (15-30 % li) kislota bir necha marta yangilab turiladi. Kalciysizlantirilgan suyakni uzoq vaqt saqlash uchun uni 70 % li spirtga olib qo`yiladi.

Yuqoridagi natijalarga ko`ra darsda suyakning xossalari ular tarkibidagi organik va mineral moddalar miqdoriga bog`liq, suyakning tarkibi odam yoshi oshib borgan sari o`zgarib, organik moddalar kamayadi, mineral tuzlar miqdori ortadi va natijada suyak mo`rtlashib qoladi, degan xulosa chiqariladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar: Yuqorida ko`rsatilgan rasmlarni albomingizga chizing.

Laboratoriya ishi № 2

Mavzu: Suyakning mustahkamligini aniqlash.

Darsning maqsadi: Suyakning ichki tuzilishi hamda uning mustahkamlash haqida to`liq ma`lumot berish. Suyak pishiq biriktiruvchi to`qimadan iborat suyak pardasi bilan qoplangan bu parda suyak moddasi bilan mustahkam birikib ketgan. Suyak ana shu suyak pardasi hujayralarining bo`linishi tufayli yo`g`onlashadi.

Suyaklarning xossalari o`rganilganda ularning mustahkamligi ta`kidlab o`tiladi.

Kerakli asboblari: qo`zi yoki yirikroq qushning son yoki elka suyagi, tosh-tarozi, osma tarozi pallasasi.

Ishning borishi: aniqlash uchun olingan suyak yonma-yon turgan stollar o`rtasiga gorizantal holda qo`yiladi. Bunda suyakning bir uchi birinchi stolning chekasiga, ikkinchi uchi esa ikkinchi stolning chekasiga qo`yiladi. Shundan keyin suyakning o`rtasiga tarozi pallasasi ilinadi

(-rasm). Palladagi toshlar 1 kg dan boshlab, to suyak singunga qadar ko`payib boriladi va uning qancha og`irlikka bardosh berishi aniqlanadi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar: Suyaklarni xossalari haqida labarotoriya daftaringizga yozing.

Laboratoriya ishi № 3

Mavzu: Suyakning naysimon bo`lishi va uning ahamiyati.

Darsning maqsadi: Suyaklarning naysimon bo`lishi va naysimon suyaklarning ahamiyati haqida ma`lumot berish.

Suyaklar ikki xil suyaklar guruhiga bo`linadi:

1. Naysimon suyaklar.
2. Yassi suyaklar.

Naysimon suyaklar o`z navbatida ikki xil: Uzun naysimon suyaklar: son, boldir, elka bilaklarning tanasining o`rta qismida sariq suyak iligi bilan to`lgan kovagi bor. Ikki uchi esa tog`ay bilan qoplangan kalta naysimon suyaklar oyoq va qo`l panjalarida joylashgan, ushbu suyaklarning o`rtasi naysimon bo`ladi. Bunday tuzilish organizm uchun zarur bo`lgan mustahkamlikni ta`minlaydi. quyidagi tajriba suyakning naysimon bo`lishi va uning ahamiyatini ko`rsatadi.

Kerakli asboblari: ikki varaq qog`oz (20x30 sm), osma apteka, tarozi pallasasi, nina yo`g`onligidagi sim bo`lagi (20-25 sm), diametri 1 sm li shisha nay yoki o`quvchi ruchkasi, ip yoki ipak lenta bir-biridan 20 sm oraliq tik o`rnatilgan ustunchali taxtacha, qog`oz elim.

Ishning borishi: Ikki varaq qog`ozning biri shisha nayga yoki ruchkaga, ikkinchisi to`g`ri simga uzun tomonlari bilan zich qilib, ezmasdan uraladi; varaqlarning eng chekka qismi elim bilan o`ralgan qismga yopishtiriladi. Elimlangan joy qurigach, shisha nay va sim o`ramlardan sug`irib olinadi. Natijada suyak tuzilishi eslatadigan qog`oz nay va ichi yaxlit qog`oz tayoqcha hosil bo`ladi. Shundan keyin qog`oz tayoqchaga bittadan lenta halqa kiritiladi. Ustunchalar ilgichiga

avval qog`oz tayoqcha o`raladi va undagi lentali halqachaga tarozi pallasi ilinadi. Tarozi pallasiga to qog`oz tayoqcha egilguncha tosh qo`yib boriladi va tayoqchanning qancha og`irlikda yuk ko`tara olishi belgilanadi.

Natijalar taqqoslanganda jiddiy farq ko`zga tashlanadi: garchi bir xil materialdan yasalgan bo`lishiga qaramay, nay yaxlit tayoqchaga nisbatan ancha og`irroq yuk ko`tara olishini ko`rsatadi.

Tajriba nayining shu materialdan yasalgan tayoqchaga nisbatan mustahkam bo`lishini, binobarin skelet ayrim suyaklarining naysimon bo`lishi organizmga mustahkamlik va engillik berishini isbotlaydi.

Laboratoriya № 4

Mavzu: Umurtqa pag`onasidagi suyaklarning tuzilishi, ularning uzaro birikishi, bo`g`im va boylamlarni o`rganish, umurtqa pag`onasini kalla suyagi bilan birikishi.

Darsning maksadi. Umurtqa pag`onasi suyaklari haqida aniq tushuncha hosil qilish hamda umurtqa pag`onasi boshqa suyaklar bilan uzaro birikishini urganish.

Umurtqa pag`onasi (columma vertebralis) barcha umurtqali organizmlarning xarakterli belgisidir. Umurtqa pag`onasi gavdaning tayanchi bo`lib, tana va qo`l larning ogirligini kutarib turadi vash u ogirlikni chanok hamda Oyoqqa tushiradi.

Odamda umurtqa pag`onasi 33-34 umurtqadan tashqil topgan. So`nggi 6-9 ta umurtqa bir-biri bilan kushilib ketadi va dumgaza bilan dumni hosil qiladi.

Umurtqa pag`onasining besh bo`limii tafovut qilinadi 7 ta umurtqadan tashqil topgan bo`limii, 12 ta ko`krak bo`limii, 5ta umurtqadan iborat bel bo`limii, 5 ta umurtqadan tashqil topgan dumgaza va 4-5 ta umurtqadan hosil bulgan dum bo`limii.

Umurtqa aro tog`aylar, boylamlar va bo`g`imlar yordamida bir-biri bilan birikadi:

Kerakli asboblar : plakat tablica mulyaj maket, planshet odam skeleti, odamning umurtqa pag`onasi suyaklari, chizg`ich qog`oz, qalam va o`chirg`ich.

Ishning borishi: umurtqa pag`onasining uziga xos tuzilishi hamda vazifasini urganish uchun eng avvalo odam skeletidan talabalarga umurtqa pag`onasi haqida ma`lumot berish kerak. Buning uchun umurtqa pag`onasining bo`limlari va bo`limlari birikkan joylamlar ham nimalar yordamida birikkanligi aytib utiladi.

Umurtqa (vertobra) oldinga karab turadigan umurtqa tanasi va unga birikkan ravogi (yoyi) dan iborat.

Tanasi bilan ravogi umurtqa teshigini cheklab turadi.

Barcha umurtqalarning umurtqa teshiklari umurtqa xonalarini hosil qiladi. Bu kanallarda orqa miya joylashgan bo`ladi.

Katta ensa teshigi yordamida umurtqa kanali kalla suyagining bo`shligi bilan tutashadi. Xar bir umurtqa ravogining umurtqa tanasiga birikish joyida ustki va pastki uyiklari bo`ladi. Umurtqalar ustma- ust bo`lib turganida, yukorida yotgan umurtqaning

pastki uyigi pastda utgan umurtqani pastki uyigi bilan tutashadi shu tarika, umurtqa aro teshiklar hosil bo`ladiki, orqa miyadan nervlar shu teshiklar orqali chikadi.

Umurtqa pag`onasining bor bo`yida umurtqalarning tanalari va umurtqa aro ravoklar uzun, bo`ylamasiga ketgan oldingi va orqa bo`ylamlar bilan bir-biriga tutashgandir. Bo`g`im usimtalari kam xarakat qiladigan umurtqa aro yassi bo`g`imlarni hosil qiladi. Boylamlar yordamida umurtqalarning ravoklari, kundalang usimtalari, kirrali usimtalari birikkandir.

Qirrali usimtarining uchi ustidan uzun suyak ust boylami o`tadi, bo`yin bo`limida bu boylam ensa boylamiga aylanadi.

Shunday qilib, umurtqalar uzaro hamda umurtqalar boshqa suyaklar bilan, umurtqa aro tog`aylar, boylamlar va bo`g`imlar yordamida bir-biri bilan birikadi.

Sungra talabalar Laboratoriya darsi davomida kurib tushingan skeletlarni ulganlarini olib rasmi chiziladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tafsiyalar:

Laboratoriya darsi davomida odam umurtqa pag`onasi suyaklarini rasmini ok qog`oz tushiring. Odam skeletidan umurtqa pag`onasi bo`limlarining ulchamlarini ulchab daftaringizga tushiring.

Rasmga karab umurtqa pag`onasi nimalar yordamida birikkanini tushuntirib bering?

Laboratoriya № 5

Mavzu: Qovurg`alar, to`sh suyaklari va ularning tana bo`limlariga uzaro birikishini urganish.

Darsning maksadi: Qovurg`alar va to`sh suyaklari haqida aniq tushuncha berish, hamda tana bo`limlariga uzaro birikishini tushuntirish.

Qovurg`alar (costae) 12 juft kambar uzun yassi suyaklardan iborat. Xar bir qovurg`a kattaroq bo`ladigan suyak qismi va qovurg`a tog`ayidan tashqil topgan. Qovurg`aning boshchasi, bo`yni va tanasi bo`ladi. Ustki 10 juft qovurg`aning bo`yni bilan tanasi o`rtasida qovurg`a do`mbog`chasi bor.

Qovurg`aning to`sh suyagiga birikadigan oldingi uchi tog`ayga aylangan bo`ladi.

To`sh suyagi yoki to`sh (sternum) yassi suyaklar jumlasiga kiradi. Bu suyak 3 qismdan tashqil topgan: ustki qism-dastasi, o`rta qism-tanasi va pastki qism-xanjarsimon o`simta. Tanasi tashqariga chikib turadigan utmas burchak ostida dastasi bilan tutashgan. Tanasining ustki kirgogida bo`yintiruk uyigi, uning ikki yon tomonida esa o`mrov uyiklari bor. Tanasi bilan dastasining tashqi kirgoklarida 7 tadan uyik bo`lib Qovurg`alar shularga kelib tutashadi.

Kerakli asboblari: plakat, tablica, mulyaj, maket, plakat odam skeleti, odamning qovurg`a va to`sh suyaklari qog`oz, chizg`ich, qalam va o`chirg`ich.

Ishni borishi: Laboratoriya darsi davomida talabalarga Qovurg`alar va tush suyagini tushuntirish uchun eng avvalo ularni tuzilishi, vazifasi hamda xususiyatlarini kursatib berish lozim. Buning uchun tajribalar uchun ishlatiladigan odamning Qovurg`a va tush suyaklarini olib talabalar dikkatini jalb qilish kerak sungra suyaklarni tuzilishini, vazifasini birin - ketin aytib beriladi.

Qovurg`alarning tashqi va ustki yuzalari tafovut qilinadi. Qovurg`alarning ichki yuzasida uning pastki bo`ylab ketgan egatcha kurinib turadi, bu Qovurg`a aro tomirlar bilan nervlar o`tdigan joydir.

Qovurg`alar shakli va katta-kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi. 2 ta ustki va 2 ta pastki Qovurg`a hammasidan kalta bo`ladi.

Tush suyagi yuza joylashganligi tufayli punkciya qilish (maxsus igna bilan teshish) mumkin. Bunda diagnoztika yoki davo maksadlarida govak suyak moddasidan ko`mik olinadi. Sungi vaktida donirlar ragbatlantirilmokda: soglom odamlar uz ixtiyori bilan tushini punkciya kildirib, kasallarga kuchirib utkazish uchun ko`miklarini bermokdalar.

Ko`krak umurtqalari, 12 juft Qovurg`a va tok tush suyagi hamda bularning birikmalari ko`krak kafasi skeletini hosil qiladi. (rasm).

Qovurg`alar uzining orqa uchlari bilan ko`krak umurtqalariga bo`g`imlar yordamida birikadi. Qovurg`alarning boshlari, umurtqalarni tolalari, dumbokchalari esa kundalang usimtalari bilan birikadi. Ulardan hosil bo`ladigan bo`g`imlar aralash bo`g`imlardir, bularda Qovurg`alar yukoriga kutariladi va pastga tushadi. Ustki 7 juft Qovurg`a uzining oldingi juftlari bilan tush suyagiga birikadi. Bular chin Qovurg`alardir. Keyingi 5 juft Qovurg`a soxta Qovurg`a deb ataladi. VIII. IX. X. Juft Qovurg`alar uzlarining tog`aylari bilan bir-biriga –pastdagilar yukoridagilarga birikadi; bular Qovurg`a ravogini hosil qiladi. XI va XII juft Qovurg`alarning oldingi uchlari yumshok to`qimalarda erkin yotadi, bu Qovurg`alar ba`zan tebranuvchi Qovurg`alar deb ataladi. Xullas Qovurg`alar va tush suyaklari bo`g`imlar yordamida uzaro hamda boshqa suyaklar bilan birikadi. Sungra talabalar dars davomida Qovurg`a va tashqil kiluvchi suyaklarini ulchamlarini olib rasmlari chiziladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar: Rasmga va Qovurg`a, tush suyak maketlariga karab, ularning tuzilish va uzaro birikishini tushintirib bering. Odamning Qovurg`a, tush suyak qismlarini ulchamini ulchab, qog`ozga tushiring?

Laboratoriya № 6

Mavzu: Qo`l va elka kamari suyaklarining tuzilishi, o`mrov ko`krak suyaklari va erkin xarakat qismi suyaklari (elka, bilak, tirsak, bilakuzuk, kaft, barmoq suyaklari) ularning uzaro birikishini va tushishini urganish.

Darsning maqsadi: Qo`l skeleti va unitashqil kiluvchi suyaklar elka kamari va erkin qo`l suyaklari haqida tulik ma`lumot berish va ularni uzaro birikishini tushintirib berish.

Qo`l mexnat organiga aylangan. Shu munosabat bilan qo`l suyaklari va buginlarning tuzilishi uning changallab ushlash va paypaslab kurish vazifasini aks ettiradi. Qo`l skeleti elka kamari va erkin qo`l skeletidan hosil bulgan. Elka kamari skeleti ikkita kurak va ikkita o`mrov suyagidan tashqil topgan. erkin qo`l skeleti elka suyagi; tirsak va bilak suyaglari hamda panja suyaklaridan vujudga kelgan.

Kerakli asboblar: mulyaj, plakat, tablica, planshet, maket, odam skeleti, odamning qo`l skeleti, qog`oz, qalam, o`chirg`ich, chizg`ich va kley.

Ishning borishi: Avvalo qo`l skeleti va uni tashqil kiluvchi suyaklarni talabalarga tanishtiriladi. Buning uchun odam skeletining qo`l qismi olinib tushintiriladi.

Qo`l skeleti elka kamari va erkin qo`l skeletidan hosil bulgan. Elka kamari suyaklari o`mrov suyagi va kurak suyaklariga bulinadi.

O`mrov suyagi (clavicula) ning S-simon bukilgan tanasi va yo`g`onlashgan ikki uchi-tush va akromial (elka) uchi bor. O`mrov suyagining shakli, xususan, ozg`in odamlarda teri ostida yaqin ko`rinib turadi; bu suyakni hamisha paypaslab ko`rish mumkin..

Kurak suyagi (scapula) –uchburchak shaklidagi yassi suyak Kurak suyagining uchta kirg`og`i, ya`ni chet ustki, tashqi va ichki(umurtqa) cheti va uchta burchagi ustki, pastki va yon burchagi bor.

Kerakli asboblari: maket, mulyaj, planshet, tablica, plakat, qog`oz, qalam, o`chirg`ich, chizg`ich va keles.

Ishning borishi: Jjjjjjjjjjjjj

Nafas sistemasini.

Nafas organlari jumlasiga: burun bo`shligi, xikildok, traxeya (kekirdak), bronx va upka kiradi. Nafas sistemasida xavo yullari (burun bo`shligi, xikildok, traxeya va bronxlar) va upkaning nafas parenkimosidan iborat nafas qismi ajratiladi, nafas sistemasining nafas qismida upka al`veolalaridagi xavo bilan qon o`rtasida gazlar almashinadi. Nafas sistemasini oldingi ichak ventral devorining usimtasini tarikasida rivojlantiriladi: Uzil kesil rivojlanish boskichida bu aloka saklanib koladi: Xikildokning ustki teshigi xalkumga ochiladi. Shunday qilib, xavo burun bo`shligi yoki ogiz va xalkum orqali xikildokka o`tadi. Shu munosabat bilan burun bo`shligi hamda xalkumning burun qismi «yukori nafas yullari» degan nom bilan birlashtiriladi.

Nafas yullari tuzilishining xarakterli xususiyatlari devorlarida tog`ay asosini borligi (shuning natijasida nafas nayining devorlari kuchaymaydi) va nafas yullari shillik pardasida xilpillovchi epiteliy bulishidir, shu epiteliy vorsinkalari xavo xarakatining aksiga karab tebranib turadi va xavoni ifloslantirayotgan yot zarrachalarini shilimshik bilan birga tashqariga karab xaydaydi.

Nafas deb tirik arganizm bilan atrof muxit o`rtasida bo`ladigan gazlar almashinuviga aytiladi Ayni vaktida arganizm tashqi muxitdan kislarod oladi va karbonat angidrit gazini tashqariga chitkaradi. Tirik hujayralarda tinmasdan davom etib borib, energiya ajratib chikaradigan oksidlanish jarayoni uchun unga kislarod zarur. Karbonat angidrit gazi moddalar almashinuvining oxirgi maxsuloti sifatida oksidlanish natijasida hosil bo`ladi. Nafasning loakal qisqa vaktga tuxtab kolishi ulimga olib boradi, chunki moddalar almashinuvining tuxtab kolishiga sabab bo`ladi. Shu munosabat bilan nafas asosiy xayot jarayoni xisoblanadi.

Uzunchok miyada joylashgan nafas markazida ritmik ravishda qo`zg`alish paydo bo`lib turadi va nafas markazidan orqa miya markazlariga, keyinchalik esa diafragma hamda Qovurg`a aro nervlar bo`ylab nafas muskul lariga nerv impulslari borib, ularning qisqarishiga sabab bo`ladi.

Laboratoriya № 14

Mavzu: Nafas olish va chikarish organlarining tuzilishi, funkciyasi.

Darsning maksadi: Nafas olishi va chikarish organlarining tuzilishi, joylashgan o`rni hamda vazifasi haqida tulik ma`lumot berish. Nafas olishi va chikarish jarayoniga izox berish.

Nafas olish organlari bilan tashqi muxit o`rtasida gaz almashinuvidir. Nafas olishning moxiyati arganizmga tashqi muxitdan kislarodning tuxtovsiz utib turishi, uni organiqli moddalarni biologik oksidlanishi uchun foydalanishi va oksidlanish jarayonida hosil bulgan uglerod oksidini arganizmdan chikarib tashlashdan iborat.

Nafas yullari: Burun bo`shligi, xikildok, bugiz, traxeya, bronxlardan va gaz almashinuv organi upkadan iborat. Xavo burun bo`shligidan utib, burun – tomokka, undan bugizga traxeya va bronxlar orqali upkaga o`tadi.

Kerakli asboblar: plakat, maket, planshet, mulyaj, tablica, qog`oz, qalam, chizg`ich va o`chirg`ich.

Ishning borishi: Laboratoriya darsi ma`ruza darsiga tayangan holda olib boriladi. Ya`ni nafas Oli shva chikarish organlariga avvalo Birma- bir tuxtalib, tushuntiriladi. Nafas olish organlarini yukorida aytilganidek burun bo`shligi, xikildok, bugiz, traxeya, bronxlar va bir juft upkadan iborat.

Burun bo`shligi: (larynx)- Nafas yulining ikkinchi qismi bo`lib, ovoz paydo kiluvchi a`zo vazifasini ham bajaradi. Xikildok yukorida til osti suyagiga osilib turadi, pasti esa biroz torayib, kekirdakka o`tadi. Xikildok juft va tok tog`aylarning boylamlar, muskul lar yordamida uzaro birikishdan vujudga keladi.

Kekirdak yoki traxeya (trachea)-uzunligi 9-11sm, dm 15-18 nn keladigan naydan iborat bo`lib, V bo`yin umurtqasining ruparasida bevosita xikildokdan boshlanadi, sung ko`krak nafasining yukori teshigi orqali kuks oraligigacha borib, IV-V ko`krak umurtqalarining ruparasida chap va ung bronxlarga ajraladi. Anashu joy kekirtagning asosi deb ataladi.

Bronxlar- kekirdakning IV-V ko`krak umurtqalari ruparasida ung va chap tarmokka bulinishdan vujudga keladi. Ung bronx deyarli vertikal yunalishga ega. Chap bronx ungga nisbattan torrok va uzunrok bo`lib, 9-12 ta tog`ay xalkadan tuzilgan. Chap bronx kekirdakdan burchak hosil qilib yunaladi.

Upka (pulmones)- bir juft bo`lib, ko`krak kafasining ikki tomonida joylashgan. Ung va chap upka o`rtasidagi kamchatda yurak urnashgan. Upkalarining asosi rost tomondan diafragma tegib turadi va diafragma yuzi deyiladi. Upkaning uchi birinchi Qovurg`adan 3-4 sm yukorirokda turadi. Upkaning medial (kuks oraligi) yuzasida upka arteriyasi, venasi va bronxlar kirib chikadigan upka darvozasi joylashgan. Ung upka tagida jigar joylashgan. Shuning uchun ham ung upka xajmi chap upkaga Karaganda kattarok, bo`yi esa qisqarok.

Bronxlar ung va chap upkalariga kirib daraxt shoxi kabi tarmoklanadi. Ung upkaga kirgan bronxlar uch bulakka bulinadi. Chap upkaga kirgan bronxlar esa ikki bulakka bulinadi. Bu daraxt nafas yuli xisoblanadi. Xar bir chegara bronx uz navbatida ikkita nafas bronxlariga bulinadi. Nafas bronxlari torayib nafas naychasiga, kengayib, nafas pufakchalari va upka alveolariga aylanadi. Shunday qilib upkada xayotiy xavo sigimi o`rtacha 3500-3700ml gacha bo`ladi. Kolgan xavo 1300-1400 ml xavo esa koldik xavo bo`lib , doim upkalarda turadi.

Plivra (plieura) – upkani koplagan seroz parda. U ikki varakli bo`lib, upka ustidan utib turgan varagiga ichki varak va ko`krak bo`shligi devorining ichki tomoniga yopishgan varagiga parietal varak deyiladi.

Sungra barcha organlar tugrisida tulik va aniq ma`lumotlar Bilan tanishib bulgach, Ushbu nafas olish va chikarish organlarini kaysi organlar Bilan chegaralanganligi va ular tugrisida Laboratoriya daftarlariga yoziladi.

Ishni rasmiylashtirishga oid tavsiyalar:

Nafas olish va chikari organlarini ketma-ketligida daftaringizga yozing va ketma-ketlikda ok qog`ozga rasmini chizing. Ushbu sistema boshqa organlar sistemasidan farqlari va uxshash belgilarini kursatib bering.

Jjjjjjjjjjjjjjjjjjjjjjjj **Ayirish organlar.**

Siydik tanosilsistemasi siydik organlari Bilan jinsiy organlarni uz ichiga oladi. Bu organlar rivojlanishi jixatidan bir-biri Bilan maxkam boglangan va ularning chikarish yullari erkaklarda bita umumiy nay – siydik chikarish kanali bo`lib tushsa, kin daxliziga ochiladi.

Siydik organlari jumlasiga siydik ishlab chikaradigan bo`yruklar va siydikni yigib turish hamda tashqariga chikarish uchun xizmat qiladigan organlar – kovuk, siydik yullari va siydik chikarish kanali kiradi.

Siydik ajratish va tanosil a`zolari tuzilishi va xar xil bulsada , ularning joyi va topografiyasida umumiylilik mavjud. Shuning uchun ular siydik ajratish va tanosil a`zolari sistemasiga birga kushib urganiladi.

Laboratoriya №. 15

Mavzu: Bo`yrakning tuzilishini urganish.

Darsning maksadi: Bo`yrakning tashqi va ichki tuzilishi, vazifasi, joylashgan o`rni urganish, hamda dars davomida talabalarda bo`yrakning bajaradigan vazifasiga boglik holda tuzilish xususiyatlari haqida tushuncha hosil qilish.

Bo`yrak (ren, nephros) –korin bo`shliginingorqa devorida korin pardasining ortida bel soxasida joylashgan juft organdir.

Kerakli asboblar: tarelka yoki vanacha,skyal'pel', lupa, shirin sut emizuvchi xayvon (kuy yoki echki) bo`yragi, plakat, tablica, mulyaj, planshet, maket.

Ishning borishi : Laboratoriya darsi, ma'ruza darsidan foydalanilgan holda olib boriladi. Avvalo bo`yrakning loviyasimon shakli, uning qon tomirlari, nervlari va siydik yuli tutashgan joyi kuzdan kechiriladi. Keyin esa bo`yrakning ichki tuzilishini urganiga utiladi. Buning uchun bo`yrakni chap qo`l ga olib, ung qo`l dagi skal'pel' bilan uzunasiga simmetriya chizigi bo`ylab kesiladi va ikki bulakka ajratiladi. Bunda kichikrok bo`shlik – bo`yrak joychasi va bo`yrak moddasi kurinadi.Bo`yrak moddasi tuk tusli tashqi katlam va och tusli ichki katlamdan iborat . Tashqi katlam lupa orqali karalganda unda juda kup mayda nuktalar kurinadi. Bu nuktalar qon kapilyarlarining chigallari (tugunchalari) dir.

Dars yakunida bo`yrakning tuzilishi, qon bilan goyat kup ta'minlanishi, barcha organ va to`qimalarda hosil bulgan va qonga utgan oksidlanish va parchalanish maxsulotlarini ayirib kolish hamda ularni organizmda chikarib yuborish funkciyasi haqida xulosa chikariladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar:

Mavzuga oid barcha rasmlarni bo`yrakning kundalangiga kesilgan holdagi kurinishini al'bomingizga chizing.

Laboratoriya №. 16

Mavzu: Bo`yrak shakli, nevronning tuzilishi, siydik kanali, siydik pufagini tuzilishi.

Darsning maksadi: Ayirish sistemasi organlarining kurinishi, tuzilishi, vazifasi va urnashgan o`rni bilan tanishish hamda ular haqida ma'lumot olish.

Siydik ayirish organlari ikkita buyurakdan, ulardan chikadigan naycha – siydik yuli, siydik pufagi-kovuk hamda chikarish nayidan iborat.

Kerakli asboblar: mulyaj, maket, planshet, tablica, plakat, qalam , chizg`ich, o`chirg`ich, kley.

Ishning borishi: Dars ayirish sistemasini tashqil kiluvchi organlarni plakat', mulyaj, planshet, maketlardan foydalanilagn holda olib boriladi.

Ayrim organlarga Birma-bir tushuntirib utiladi.

Bo`yrak(rem, nephros) – bir juft loviya shaklida, oldindan orqaga tomon yassilangan, o`rta yoshdagi odamlarda 140-15 gr. Bo`yraklar I,II dek umurtqalari tanasining ikki yon tomonida, korin bo`shligining orqa tomonida muskul va diafragma tegib turadi. Korin parda bo`yraklarini fakat old tomondan bekitadi. Ikki pallaga ajratilgan bo`yrakda uning tashqi tomonida joylashgan jigar changli, kalinligi 4-5 ml keladigan bo`yrak pusti moddasini va ichki tomonda aloxida – aloxida tudalanib peramida shaklida joylashgan miya (ok) moddasini kurish mumkin.

Peramidalarning keng tomoni bo`yrak pusti tomoniga, surgich shaklidagi uchi bo`yrak bo`shligiga karab urnashgan. Peramida taxminan 1mln mayda kanalchalar (nefronlar) dan tuzilgan. Kanalchalarning oxirgi uchi kovuzgok shaklidagi Shumlyanskiy-Boumen kansulasi bo`yrak pusti moddasida joylashgan.

Kapsulaning ichkarisini arteriya qon tomiri kaplyar koptokchasi tuldirib turadi. Anashu joyda kaplyardan qondagi suyuklik (suv va mineral) tuzlar ajraladi. Bu suyuklik (birlamchi siydik) kapsuladan ketuvchi yukoridagi ilon izi shaklidagi birlamchi burama naychaga, undan tugri naychaga, o`tadi. Tugrii naycha buqilib, Yana yukoriga kutarilib,

ikkinchi burama naychaga, undan kushuvchi naycha orqali siydik yiguvchi, sungra tugri naychagao`tadi. Bir kancha (15-20 ta) tugri naychalar kushilib,surgich yuli orqali richamida uchiga ochiladi. Shumlyanskiy-Boumen kapsulasi, birlamchi burama naycha, ikkilamchi burama naycha va kushuvchi naycha birgalikda bo`yrak asosi – nefronni hosil qiladi.Suv va mineral tuzlar, boshqa kerakli moddalar birlamchi va ikkilamchi buralma naychalardan uta turib, organizimga kaytadan shimiladi, natijada xakikiy siydik hosil bo`ladi.Siydik piramida surgichidan uni urab kichik kosachalarga o`tadi. Kichik kosachalar 8-9 ta bo`lib, 2-3 ta kosacha kushilishi natijasida ikki-uchta kata kosacha hosil bo`ladi. Jam bo`yrak darvozasidan chikish Bilan siydik yuli nomi Bilan davom etib kovukka ochiladi.

Siydik yuli – uzunligi 30 sm bo`lib, bo`yrak jomidan kovukka utkazadi. Bu nayni korin parda fakat old tomondan koplaydi. Siydik yuli joylashishiga kura korin va chanok qismidan iborat. Siydik yuli boshlanish qismidan, chanokka utish chegarasida va kovga kirish oldida birmuncha torayadi. Siydik yulining kovuk devori ichidagi qismiga yashiringan qism deyiladi.

Kovuk yoki siydik pufagi (vesica urinaria) – kichik chanok bo`shligida joylashgan. Xajmi 500-700 ml bo`lib, ichida siydik bor yo`qligiga karab, shakli uzgarib turadi. Kovukning pastdagi qismi – kovuk tubi, yukori toraygan uchi – chukki va bu ikki qism oraligi – kovuk tanasi tafovut qilinadi.

Sungra talabalar ayirish sistemasini tashqil kiluvchi organlar Bilan tanishganlaridan sung Ushbu organlar ketma-ketligi va ichki tuzilishi haqida Laboratoriya daftarlarigayozadilar.

Ishni rasmiylashtirishga oid tavsiyalar.

Ayirish organlarini o`rta yosh odamda kancha kattalikda bo`limini ulchab daftaringizga yozing.shbu organlar rasmlarini al`bomingizga chizing va izoxlab bering?

Laboratoriya № 17

Mavzu: Ter iva teri bezlarini tuzilishi.

Darsning maksadi: Ter i va teri bezlari haqida aniq tushincha hosil qili shva ularni tuzilishi va vazifasi haqida ma`lumot berish.

Teri odam xaroratini, atmosfera bosimini , ogrikni , biror narsa tegib turganini sezibgina kolmasdan , organizmni tashqi ta`surotlardan ham saklab turadi. Odamda teri satxi o`rtacha 1,5- 2,0 kv m ga teng

Kerakla asboblar : maket , mulyaj , plakat , tablica , qog`oz , qalam , o`chirg`ich , planshet hamda kele

Ishning borishi : Laboratoriya darsida ma`ruza darsidan foydalangan holda olib boriladi. ya`niy mavzuga oid mulyaj, plakat, maket, planshet, tablicalar yordamida mavzu tulik yoritiladi.

Teri (cutis) - uch kavatdan iborat: epidermis, o`rta – chin teri ya`ni derma, hamda ichki teri osti kletchatkasidan iborat epidermis kup kaytli epiteliy hujayralardan tashqil topgan epidermisning sirtki kavati shoxsimrn, yadrosiz, yassi ulik hujayralardan iborat. Bu hujayralar tashqi muxit ta`sirida doimo emirilib turadi,ularning o`rniga ostki kavatdan yangi bezlarning sekreti sochni va terini yoglab turadi. Sochlar ham tirnoklar kabi terining shox moddasidan hosil bulgan.

Terining eng ostki kavati – teri osti kletchatkasi biriktiruvchi yog to`qimasidan iborat. Bu kavat tana xaroratini saklash hamda ichki organlarni mexanik ta`sirdan ximoya qilish vazifasini bajaradi. Teri osti va yog kletchatkasi zapas ozika ham bo`lib xisoblanadi.

Teri hama erda ham bir xil kalinlikda emas, eng kalin joyi 2,5-3 mm, eng yupka eri 0,3-0,5 mm. Shunday qilib, mavzuga oid barcha ma`lumotlar olindi. endi ushbu mavzuga oid rasmlarni ok qog`ozga tushiriladi. Teri kaysi a`zolarida, kalinligi kancha bulishi ham Laboratoriya daftarga yoziladi.

Ishni rasmiylashtirishga oid tavsiyalar:

Al`bomingizga terining kavatlarini aloxida-aloxida kursatib chizing.

Laboratoriya daftaringizga odam terisi xayvon terisidan nimalar bilan farq qilishini hamda uxshash belgilarini yozing.

jjjjjjjjjjjjjjjjjjjjj Qon va qon aylanish sistemasi.

Qon. qon nafas olish organlaridan hujayralarga kislorod etkazib beradi; hujayralardan uglerod gazini olib chiqib ketadi; ovqat hazm bo`lish jarayonida ichakdan qon tomirlariga o`tdigan oziqa moddalarni organizmga tarqatadi; hujayrada hosil bo`ladigan moddalar almashinuvi maxsulotlarini organizmdan chiqarib yuborishda ishtirok etadi; organilarning o`zaro gumoral bog`lanishini ta`minlaydi; organizmni kasallik tug`liruvchi mikroorganizmlardan himoya qiladi.

Qon, limfa va to`qima suyuqligi organizmning ichki muhitini hosil qiladi. Ichki muhit orqali oziq moddalar va kislorod ovqat hazm qilish va nafas olish organlaridan hujayralarga etkazib beriladi, uglevod gazi va moddalar almashinuvi mahsulotlardan chiqarib yuboriladi.

To`qima suyuqligi. Hujayralar oralig`ini to`ldirib turadigan tiniq suyuqlikdan iborat. Bu suyuqlik qon tomirlari orqali o`tdigan qon zardobidan hosil bo`ladi, shuning uchun uning tarkibi qon zardobiga yaqin bo`ladi. Organizmda 20 l ga yaqin to`qima suyuqligi bo`ladi. To`qima suyuqligi oziq moddalar va kislorodni qondan hujayralarga, uglevod gazi va almashinuv mahsulotlarini hujayradan qancha o`tkazish vazifasini bajaradi. To`qima suyuqligida limfa kapilyarlarning naylari joylashgan. To`qima suyuqligi limfa kapilyarlariga o`ti, limfa suyuqligiga aylanadi. Bu sarg`ish rangli suyuqlik bo`lib, tarkibi qon plazmasiga yaqin bo`ladi, undan oqsil miqdorining kamligi va tananing turli qismlarida bir hil bo`lmasligi bilan farq qiladi.

Qon- suyuq biriktiruvich to`qima bo`lib, suyuq plazmadan va qon hujayralari ya`ni shakliy elementlaridan tashqil topgan. Shakliy elementlari qizil qon tanachalari-eritrocitlar, oq qon tanachalari – leykocitlar va qon plastinkalari- trombocitlardan iborat. Odam organizmida 4,5-5 l qon bo`ladi. 1 mm³ qon tarkibida 4.5-5 mln eritrocitlar, 5-8 ming leykocitlar va 200-400 ming trombocitlar bo`ladi.

eritrocitlar- yadrosi hujayralar bo`lib, citoplazmasida gemoglobin bo`ladi. Gemoglobin tarkibida globulin oqsili va qizil pigment bo`ladi. qonning rang ana shu pigment bilan bog`liq. eritrocitlar 120-130 kun yashab, jigarda va taloqda emiriladi, gemoglobin qoldig`idan o`t pigmenti hosil bo`ladi. eritrocitlar suyakning g`ovak

moddasidan qizil ilikning yadrolik hujayralaridan hosil bo`ladi. Etilish davrida ularning yadrosi yo`qoladi.

Leykocitlar- yadrolik, lekin doimiy shaklga ega bo`lmagan hujayralar. qizil suyak iligida va limfatik tugunlarda hosil bo`ladi. Ular 2-4 kun yashab, taloqda emiriladi. Leykocitlar amyobasimon harakat qiladi. Leykocitlar organizmda himoya vazifasini bajaradi. Organizm uchun begona moddalarni qamrab olib hujayra ichida hazm qiladi. I.M.Mechkinov leykocitlarni figocitlar, ular yod moddalarni qamrab olish xususiyatini esa fagocitoz deb ataladi.

Trombocitlar- odam qonida tiniq rangli yumaloq, ovalsimon va noaniq shakildagi tanachalardir. Tez alglyutinciyaga uchrashi sababli qon surtmalarida qon guruh-guruh bo`lib uchraydi. Bu esa ularni miqdorini sanashga qiyinchilik tug`diradi.

Trombocitlar qonning ivuvchanlik jarayonida qatnashadi. Bunda ular tezda bir-biriga yopishib fibrik tolalari hosil qilishi bilan harakterlanadi. Trombocitlar 5-8 kungacha yashaydi.

qon aylanish. qon aylanish qonning yurak-qon tomirlari sistemasi bo`ylab harakatidan iborat. qon aylanish sistemasi orqali qon kislorod, oziq moddalar, suv, meneral tuzlar, vitaminlar, garmonlarni tanadagi turli organ va to`qimalarga etkazib beradi, moddalar almashinuvi mahsulotlarini organizmdan chiqarib tashlanadi. qon aylanish sistemasi organilari: yurak, arteriya, vena va kapilyar qon tomirlaridan iborat.

Labarotoriya ishi № 18

Mavzu: Odam qonidan vaqtinchalik mikropreparat tayorlash.

Darsning maqsadi: Odamning qon hujayralari, jumladan, qizil qon tanachalari to`g`risida aniq tushuncha hosil qilish va qon preparatini mikroskopda ko`rish hamda ko`rganlarni rasmini chizish.

qon- suyuq biriktiruvchi to`qima bo`lib, qon zardobi va qon hujayralari ya`ni shakliy elementlardan tashqil topgan. Shakliy-elementlar: qizil qon tanachalari-eritrocitlar, oq qon tanachalari- leykocitlar va qon plastinkalari- trombocitlardan iborat. Odamning qon hujayralari jumladan, yuqorida aytib o`tilgan tanachalari to`g`risida aniq tushuncha hosil qilish uchun yangi qon preparatini mikroskopda ko`rish g`oyat muhimdir. Bu esa talabalarda odam qoni haqiqatdan ham shakli elementlar borligi haqida to`liq ishonch hosil qilish imqonini beradi.

Kerakli asboblari: Buyum va qoplag`ich oynalari, frank ninasi (yoki oddiy tikuv ninasi), spirt lampa, spirt, paxta, doka, yod.

Ishning borishi: Odatda qon chap qo`lning to`rtinchi barmog`idan olinadi. Buning uchun avval buyum va qoplag`ich oynalari yaxshilab tozalanadi (spirt bilan artilib, suv bilan yuviladi). So`ngra barmoq yostiqlikchasi spirt surkab, dizinfekciya qilinadi va barmoq yuzasi qurigach, birinchi bo`g`im ostidan bosh va ko`rsatgich barmoq bilan qisib turib unga spirt lampa alangasida qizdirilgan va spirt bilan artilgan nina sanchib olinadi.

Dastlabki qon tomchisi toza paxta bilan artilib tashlanadi. Navbatdagi tomchi toza qon buyum oynasiga ko`chiriladi va barmoq yostiqlikchasi yod bilan dizinfekciya qilinadi. Buyum oynasidagi qon tomchisi chetiga qoplagich oyna qirra 60^o burchak hosil qilib qo`yilib, tezlitk bilan buyum oynasi bo`ylab qon surkab boriladi. Natijada qonning

yupqa mazogi hosil bo`ladi. Preparat qurigach uni mikroskopda ko`rish mumkin. Bunda qon tarkibidagi eritrocitlarning juda sarg`ish va yashil rangda ekanligi kuzatiladi. Ammo eritrocitlar bir joyga to`planib (g`uj holdagisi) qizil bo`lib ko`rinadi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar: Odam tanasida kancha shakilli elementlar borligi haqida labarotoriya daftaringizga yozing.

Laboratoriya ishi № 19

Mavzu: Yurak tuzilishi bilan tanishish.

Darsning maqsadi: yurakning ichki va tashqi tuzilishi bilan tanishish. Hayvon yuragi misolida odam yuragi haqida aniq tushunchalar berish.

Yurak qon aylanish sistemasining markaziy organi, u qonni organizmdagi tomirlar bo`ylab harakatini ta`minlaydi. Yurak venalardan o`ziga kelayotgan qonni arteriyalarga ritm bilan haydab chiqarish yurakning vazifasidir.

Labarotoriya darsida talabalarga ho`l holatdagi priparatni ko`rsatish ko`zda tutilgan. Bundan maqsad talabalarda sut emizuvchi hayvon yuragi misolida odam yuragining to`rt kamerali tuzilishi, yurak klapinlarining roli, shakli bilan vazifasining birligi to`g`risida tasavvur hosil qilishdan iboratdir. Ho`l priparat bo`lmaganda ko`rsatish uchun biror yangi so`yilgan yirik sut emizuvchi hayvon yuragidan foydalanish mumkin.

Kerakli asboblari: qora mol yoki yirik qo`y yuragi (qushxona boshqa joydan olinadi), tarelka, skal`pel`, pincet, qaychi, yurak muyaji.

Izoh: Shu uchun olinadigan yurak mumkin qadar shkaslanmagan va tomirlar tagi kesilmagan bo`lishi kerak.

Ishning borishi: Dastlab yurak mulyajiga qarab yurakning tashqi tuzilishi, bo`lmachalar va qorinchalari, yurakka qon olib keluvchi tomirlar o`rganiladi, keyin esa hayvon yuragi bevosita o`rganiladi. Bunda yurakning asosi va uchi, bo`lmachalari va qorinchalari ko`zdan kechiriladi. Yurak qorinchalari devorini barmoq bilan ushlab ko`rib uning o`ng va chap qorinchalari aniqladi (yurakning chap qorinchasi o`ng qorinchasiga qaraganda qalinroq bo`ladi). Yurakning o`ng va chap bo`lmachalari ham ko`rinadi. Keyin aorta va kovak venalar, o`pka venalari va o`pka arteriyasi topiladi. Aorta chap qorinchadan, o`pka arteriya esa o`ng qorinchadan boshlanadi. Kovak venalar o`ng bo`lmachaga, o`pka venalari esa chap bo`lmachaga ochiladi.

Yurakning ichki tuzilishini ko`rsatish uchun uni bo`yiga qorinchalari ikkiga ajratib turuvchi to`siqqa nisbatan perpendiqo`l yar holda kesiladi. Bunda pardasimon tabaqali va yarim oysimon klapanlar hamda ularning joylashishini ko`riladi.

Kuzatish yakunida odam yuragi ham sut emizuvchi hayvonlardagi kabi qonus shaklida bo`lib, muskul li qopchiqni eslatishi, yurak muskul i yaxlit to`siq orqali ikkiga o`ng va chap qismga bo`linganligi, har bir qism o`z nabatida bo`lmachalar va qorinchalardan iboratligi, bo`lmachalar devori qorinchalarnikiga qaraganda yupqaligi chap qorinchaning devori o`ng qorinchaniqiga qaraganda qalinligi, bu hol ularning bajaradigan vazifalariga bog`liqligi haqida hulosa chiqariladi. Shuningdek qonning bir yo`nalishida oqishi yurak klapinlarining harakati bilan ta`minlanishi o`qtiriladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar: Yurakning ichki tuzilishini tushuntirib bering, pardasimon tabaqali va yarim oysimon klapanlar hamda ularni joylashishini rasmga qarab tuzuntiring?

Laboratoriya № 20.

Mavzu: Vena qon tomirlari, ularning tarmoklari. Yukori va pastki kovak venalarini tuzilishi.

Darsning maksadi. Vena qon tomirlari, ularning tarmoklarini tuzilishi vazifasi, joylashgan o`rni haqida tulik ma'lumot berish.

Tomirlar sistemasida aytilganidek, arteriyalar yurakdan aorta va upka arteriyasi bo`ylab yunalib, mayda tolalarga, sungra kapilyarlarga o`tadi. Venalar kapilyarlardan yigilib, yiriklashadi va oxiri yurakka kuyiladi.

Kerakli asboblari: plakat, tablica, mulyaj, planshet, maket, qog`oz, qalam, o`chirg`ich, chizg`ich, hamda kley.

Ishning borishi: Laboratoriya darsi ma'ruza darsida foydalanilgan holda olib boriladi. Mavzuga oid maket, plakat, tablica, mulyaj, planshetlar orqali talabalarga tushuntiriladi.

Vena qon tomirlarining devori arteriya qon tomirlariga uxshab 3 kavatdan tuzilsa-da, yupka bo`ladi. Vena qon tomirlari yuza (teri ostida) va chuqur (arteriyalar bilan birga) yunaladi. Venalarning tuzilishidagi yana bir farq-ularning kup qismida kopka (klarap) lar bo`lib, ular yurak tomon yunalayotgan qonning teskari okishga yul kuymaydi. Vena klapaklari ochik tomoni yurak tomonga karagan chuntakka uxshab tuzilgan.

Venada qonning yurishida muskul larning qisqarishi, anonevrozlar, ko`krak kafasidagi manfiy bosim va nixoyat, yurakning qisqarib – kengayishi kata ahamiyatga ega.

Odatda, venalar yuldosh arteriya nomi bilan ataladi. Masalan, son arteriyasi bilan yunalgan vena son venasi deb ataladi.

Yukori yurak vena 6-8 sm uzunlikda bo`lib, koks oraliining oldingi bulagida ung va chap tomondagi elka – bosh venalarning kushilishidan hosil bo`ladi. Bu vena pastrokka tushib yurak xaltasidan utib, yurakning ung bulmachasiga kuyiladi. Kuyilish joyidan bir oz yukorirokda tok venani kabul qiladi. Yukori kovak vena devorida muskul tolalari ham uchraydi, klapaklar bulmaydi.

Pastki kovak vena IV yoki V bel umurtqalari rufarasida ung va chap umumiy yonbosh venalarning kushilishidan hosil bo`ladi. Bu vena yukoriga kutarilgansari ung tomonga buqiladi va jigarning orqa tomonidagi egatchada joylashadi. Uning shu joyiga jigar venalari kushiladi. Pastki kovak vena uz yulida bel venalarini, erkaklarda moyak venasi, bo`yrak va bo`yrak usti bezi venalari hamda diafragmaning pastki venalarini kabul qilib, sungra diafragma orqali ko`krak kafasiga o`tadi. Bu joyda bir oz oldinga yunalib, sungra yurakning ung bulmachasiga kuyiladi.

Mavzuga doir barcha ma'lumotlar aytilgandan sung talaba vena qon tomirlari va uning tarmoklarini xarakatlanish sistemasini ketma-ketlik tartibda Laboratoriya daftarga yozadi.

Ishni rasmiylashtirishga oid tavsiyalar: Vena qon tomirlari va ularning tarmoklari yukori kovak vena hamda pastki kovak venalarni aloxida-aloxida qilib al'bomingizga chizing. Vena qon tomirlarining qon aylanish sistemasida tutgan o`rni haqidai daftaringizga yozing?

Laboratoriya № 21

Mavzu: Limfa sistemasi, limfa tugunlari va ularning rivojlanishi.

Darsning maqsadi: Limfa sistemasi va uni hosil kiluvchi limfa tomirlari, Limfa tugunlarini tuzilishi, vazifasi, joylashgan o`rni hamda ularning rivojlanishi haqida tulik ma'lumot berish.

Odam organizimida arteriya va vena qon tomirlarining tarkibiy qismi bulgan limfa sistemasi ham bor. Limfa sistemasi tuzili shva vazifasiga kura vena sistemasiga yakin turadi.

Kerakli asboblar: plakat, tablica, mulyaj, planshet, maket, qog`oz, qalam, o`chirg`ich, chizg`ich.

Ishning borishi: Laboratoriya darsida Mavzuga oid plakat, mulyaj, planshet, maketlar orqali talabalariga mavzu kursatib tushintiriladi.

Limfa tomirlari hujayra va to`qima oraligidagi boshi berk yorik yullardan boshlanib, kapilyarlarga, keyin mayda limfa tomirchalari utib, oxiri eng kata ko`krak yulini hosil qiladi. Bu limfa yuli yurakka kuyiluvchi yukori koval vena burchagiga kuyiladi.

Limfa sistemasi quyidagi qismlardan iborat.

- 1) hujayra va to`qima oraligidan boshlanadigan boshi berk yorik yullari.
- 2) Limfa kapilyarlari va limfa tomirlari
- 3) Limfa bezlar.
- 4) Yirik limfa yullar

Limfa kapilyarlari va tomirlari juda keng tarmoklanib, uzaro boy anastomoz hosil qiladi, ular terida sillik kavatlarda va barcha a`zolarda (miya tashqari) joylashgan.

Limfa tomirlari ichki devorlarida klapaklar bulishi bilan kapilyarlardan farq qiladi. Anna shu klapanlar tufayli limfa bir tomonga oqadi. Tomirlar bo`ylab limfa tugunlari joylashadi. Qo`l tik osti chuqurchasida, tizza osti va tirsak bo`g`imlarida, bo`yinda limfa tugunlari ayniksa kup bo`ladi. Bu tugunlar mikroorganizmlarni tutib koluvchi fil`tir vazifasini bajaradi. Limfa tomirlarining hammasi ko`krak okimiga birlashib, yirik venalarga kuyiladi. Shunga kura, to`qimalardagi suyuklik kaytadan qon uziga kelib kuyiladi. Shunday qilib, qon hujayralararo suyuklik va limfa birgalikda organizmning ichki suyuk muxitini tashqil etadi.

So`ngra talabalar mavzuga oid ma'lumotlar bilan tanishganlarida so`ng laboratoriya daftarlariga limfa tomirlarini ketma-ketlikda yozadilar.

Ishni rasmiylashtirishga oid tavsiyalar:

Mavzuga oid barcha rasmlarni al`bomingizga chizing va ushbu chizgan rasmlaringizda limfa tomirlarini qon tomirlaridan tashqi va ichki farqlarini kursating hamda daftaringizga yozing?

jjjjjjjjjjjjjjAsab tizimi

Laboratoriya ishi № 22

Mavzu : Nerv hujayrasi , nerv tolalari va ularning tuzilishi . nerv to`qimasi

Darsning maksadi : nerv hujayrasi , nerv tolalari ,nerv to`qimasi tuzilishi , vazifasi , ahamiyati haqida tulik ma'lumot berish

Kerakli asboblari :mulyaj , maket , plakat , tablica , qog`oz , qalam o`chirg`ich , chizg`ich , elim , planshet.

Ishning borishi : mavzuga oid mulyaj , maket , plakat ,planshetlar yordamida yoritib boriladi .

Nerv sistemasining struktura birligi nerv hujayrasi Bilan uning usimtalari , ya'niy neyrondir . neyronlar – nerv to`qimasining asosiy hujayralari bo`lib , nerv sistemasining funkciyasini ta'minlaydi . yuldosh hujayralar neyronlarni urab olib , oziklantirish , tayanch va ximoya vazifasini bajaradi . yuldosh hujayralar neyronlardan karib 10 marta kup bo`ladi .

Neyronlarni tanasi va usimtasi bo`ladi. Usimtalar 2 xil dendritlar va aksonlar ; uzun va kalta bo`ladi .dendritlarning kupchiligi kalta , tarmok usimtalardir. Bitta neyronda ular bir nechta bo`ladi . nerv impulslari dendritlar bo`ylab nerv hujayralari tanasiga boradi .

Akson – uzun , kupincha kam tarmoklangan usimta bo`lib , u orqali impul'slar hujayra tanasidan chikadi . xar kaysi nerv hujayrasida fakat bitta akson bo`lib , uning uzunligi bir necha un santimtergacha etishi mumkin . uzun usimtalar kupincha ok rangdagi moysimon moddadan tashqil topgan parda (pust) bilan uralgan bo`ladi . ular markaziy nerv sistemasida tuplanishdan ok modda hosil bo`ladi kalta usimtalar va neyronlar tanasida bunday pust bulmaydi . ularning tuplami qo`l rang moddani hosil qiladi .

Neyronlar shakli va vazifasiga kura bir – biridan farq qiladi ba'zi sezuvchi neyronlar sezgi organlaridan orqa va bosh miya impul's utkazadi . sezuvchi neyronlarning tanasi markaziy nerv sistemasiga borish yulida nerv tugunlari nerv hujayralari tanasining markaziy nerv sistemasidan tashqaridagi tuplamdir boshqa , xarakatlantiruvchi neyronlar orqa va bosh miyadan muskul larga va ichki organlarga impul's utgazadi . sezuvchi va xarakatlantiruvchi neyronlar orqa miya Bilan bosh miyada kushimcha neyronlar orqali boglanadi , ularning tanasi Bilan usimtalari miyadan tashqariga chikmaydi orqa va bosh miya nerv orqali barcha organlar Bilan boglangan .

Shunday qilib , nerv hujayralari, nerv tolalari hamda nerv to`qimalari haqida barcha ma'lumotlar Bilan tanishib chikilganidan sung yukorida aytib utilgan uzun va kalta nerv tolalari kaysi organlarida kup bulishini Laboratoriya daftariga yoziladi

Ishning rasmiylashtirishga doir tavsiyalar

Nerv hujayralarini maketlarini yasang. Al'bomingizga mavzuga oid barcha rasmlarni chizing ?

Laboratoriya № 23

Mavzu: Orqa miyaning joylashishi , tuzilishi va uni urab turgan pardalar .

Darsning maksadi : Orqa miyaning ichki va tashqi tuzilishi , vazifasi , joylashgan o`rni , ahamiyati haqida talabalarga aniq bilimlarni berish .

Orqa miya (medulla spihalis) umurtqa pag`onasi kanalida etadi va oldindan orqaga karab bir oz yassilangan ,katta eshli odamda uzunligi 41-45 sm keladigan tortmadan iborat .

Kerakli asboblari : mulyaj ,maket, planshet ,plakat , tablica , qog`oz , qalam ,chizg`ich ,o`chirg`ich ,kley .

Ishning borishi : Laboratoriya darsi ma`ruza darsiga tayangan holda olib boriladi .Mavzuga oid barcha ma`lumotlar birin-ketin tushuntiriladi .

Orqa miya ikkita vazifasi : reflektor vazifasi va utkazish vazifasi xosdir . Orqa miya refleks markazi sifatida murakkab xarakter va vegetativreflekslarni yuzaga chikara oladi . efferent ,ya`ni sezuvchi yullar erdamida receptorlar bilan boglangan bulsa , efferent yullar erdamida skelet muskul lari va barcha ichki organlar bilan boglandir .

Orqa miya yukori tomonda u tugridan tugri bosh miyaga aylansa ,pastda , II bel umurtqasi damida uchi utkirlanib , ya`ni miya qonusi hosil qilib tugaydi . Miya qonusidan pastga karab oxirgi ip chikadi , u orqa miyaning atrofilangan pastki qismidir . Orqa miya eng yuoshda ,ona kornidagi xaetning III oyida umurtqa kanalini boshdan-oek tuldirib ,turadi ,keyinchalik esa umurtqa pag`onasi -----tezrok usganligi tusraysh orqa miyyasida koladi va yukoriga suriladi. Chakalok bolada orqa miyaning uchi III bel umurtqasi donida turadi, kata odamda esa fakat II bel umurtqasiga boradi. Orqa miya shu tarika yukori kutarilib borishi tufayli uydan chikadigan nerv ildizlari kishik yunaladi.

Orqa miya kupayib va ok moddadan tashqil topgan I rasm. Kukrag moddasi ichkarida joylashgan bo`lib, xomila tomonidan ok moda Bilan uralib turadi.

Orqa miyadan uning oldingi va orqa ildizlaridan hosil bulgan 3) juft aralash orqa miya nervlari chikadi.

Ushbu nervlar umurtqalar aro teshikdan chikadi: 8 bo`yin nerv 12 juft ko`krak nervi 5 juft bel nervi, 5 juft dumgaza va bir juft dum nervlari.Orqa miyaning bir juft orqa miya nervlari chikadigan joyga tugri keladigan qismi nerv yoki orqa miya signerti deb ataladi. Orqa miyada 3 ta signent bo`ladi.

Shunday qilib orqa miya haqida barga ma`lumotlarni olgandan sung Laboratoriya daftarining talabalar orqa miyadan chikadigan nervlarni ketma – ketlikda yozadilar

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar: mavzuga oid rasmlarni albomingizga chizing? Orqa miyadan chikadigan nervlarni chizgach rasmlaringizdan kursaib belgilang?

Laboratoriya № 24

Mavzu: Xarakterni koordinaciya qilishda orqa miyaning roli.

Darsning maksadi: Tajribadan maksad refleks va reflektor yoy tugrisidagi tushunchalarni chuqurlashtirish va orqa miya xarakterlarini tartibga solish kabi vazifalari haqida bilim hosil qilish.

Orqa miya uning ok moddasida o`tadigan, yukori kutariluvchi va past tushuvchi yullar xisobiga utkazishdek muxim vazifani bajaradi.Bu yullar orqa miya ayrim segmentlarini bir-biri bilan, shuningdek bosh miya Bilan boglaydi.

Kerakli asboblari: kiskichiga pukak urnatilgan shtativ, pincet,suvli stakan, 1 va 3% li sulfat kislata, kvadrat shaklida kirkilgan fil`tr qog`ozlar, bosh miyasi uzib kuyilgan tirik baka.

Ishning borishi: Bosh miyasi uzib kuyilgan tirik bakani shtativga qilinadi . Fil`tr qog`oz parchalaridan biri pincet yordamida idishdagi 1% li sulfat kislataga botirib olinadi va u baka Oyoqlaridan birining orqa yuzasiga yopishtiriladi. Bunda baka shu

oyog`i Bilan qog`oz parchasini tushirib yuboradi. Shundan keyin bakani stakandagi suvga tushirib, terisidagi kislota yukki yuviladi.

Bir oz vakt utgach, 3% li sul`fat kislota bilan xullangan agar qog`oz parchasi tushmasa boshqa fil`tr qog`oz parchasi baka korninig past qismiga kuyiladi. Bunda baka qog`oz parchasiga yakin turgan oyog`i Bilan uni tushirib yuboradi; agar qog`oz parchasi tushmasa boshqa Oyoqlari ham xarakatga keladi.

Baka terisi suvda yuvilib, unga bir oz dam berilgach, terining turli qismlariga (kornining o`rtasiga, elkaga, oldingi Oyoqlarga) kislotaga xullangan qog`oz parchalarini kuyish Bilan tajriba bir necha marta takrorlanadi. Xaar safargi tajribadan sung baka terisidagi kislota yuki suvda yuviladi va unga dam beriladi. Bunda baka terisining turli joylariga kuyilgan qog`oz parchasini Oyoqlari bilan olib tashlashga karatilgan xarakatlarni xar xil bulishiga e`tibor berish kerak.

Tajribadan baka terisining biror qismi ta`sirlanishi bilan tegishli muskul larning qisqarishi o`rtasida ma`lum boglanish bor va xarakatlarni koordinaciya qilishda orqa miya muxim rol` uynaydi, degan xulosa chikariladi.

Ish rasmiylashtirishga doir tavsiyalar: Reflektor yoyini ketma-ket tartibda Laboratoriya daftaringizga yozing? Mavzuga oid rasmlarni chizib oling?

Laboratoriya № 25

Mavzu: Bosh miyaning tuzilishi, uning bo`limlari (uzunchok, miya, miya kuprigi, miyacha, turt tepalik, oralik miya).

Darsning maksadi. Bosh miya va uning bo`limlari haqida tolalar ongida aniq bilim va kunikmalar hosil qilish.

Bosh miya (encephalon) nima suyagi bo`shligiga joylashgan. Uning ustki-yon yoki dorsa-loteryal yuzasi kovarik bulsa, ustki yuzasi gumbazsimon, ventral yuzasi-bosh miya asosi-yo`g`onlashgan va gadir-budir.

Kerakli asboblar: mulyaj, maket,planshet, plakat, tablica, qog`oz, qalam, chizg`ich, o`chirg`ich.

Ishning borishi: Darsni mavzuga oid barcha ma`lumotlarni berishdan boshlanib, talabalarga bosh miya va uning bo`limlari birin-ketin tushintiriladi.

Bosh miya (encephalon) dan uning asosi soxasida 12 juft bosh miya nervlari chikadi. Bosh miyada kata yarim sharlar va miya stvoli Bilan miyaga tafovut qilinadi Kata yoshdagi odam miyasining ogirligi erkaklarda 1375 gr, ayollarda 1245 gr ga teng. Bosh miya bo`limlari xar biri aloxida pufakchalardan hosil bo`ladi: uzunchok miya, ortki miya, o`rta miya, oralik miya va oxirgi miya

Uzunchok miya – Bilan orqa miya o`rtasidagi chegara birinchi bo`yin orqa miya nervlari ildizlarning chikish joyidir. Yukori tomonda uzunchok miya miya kuprigiga aylanib ketadi, uning yon bo`limlari miyaning pastki Oyoqchalari bo`lib davom etadi. Uzunchok miya ham xudi orqa miya singari, ikkita vazifani-reflektor va utkazuvchi vazifani bajaradi. Uzunchok miya v amiya kuprigidan sakkiz juft bosh miya nervlari chikadi.

Ortki miyaga miya kuprigi Bilan miyacha kiradi. Ortki miya turtinchi miya pufagidan rivojlanadi.

Kuprik (pons) past tomonda uzunchok miya Bilan chegaralanadi, yukori tomonda miya Oyoqchalariga aylanadi, uning yon bo`limlari miyachani o`rta Oyoqchalarini hosil qiladi.

Uzunchok miya Bilan kupincha yadrosi xazm qilish, nafas olishni, yurakning faoliyati va boshqa jarayonlarni bajaradi, shuning uchun uzunchok miya Bilan kuprikcha shikastlanishi xayot uchun xavfli.

Bevosita uzunchok miya ustida (mulra) joylashgan. Miyacha xarakatlanishni boshqaradi. Miyachani normal faoliyati buzilsa, odam muvofiklashgan aniq xarakatlanish, tanasining muvozanatini saklash kobilyatini yo`qotadi.

O`rta miyada yadrolar bo`lib, ular skelet muskul lariga doim nerv impul'slarini yuborib turadi, bu impul'slar ularning tarangligini –yunisini saklab turadi. O`rta mildan kuri shva tovush ta`sirlariga orientrlash reflekslarining reflektor yoyi o`tadi. Orientirlash reflekslari bosh va tana ta`sirlovchi tomonga Karaganda na`moyon bo`ladi.

Uzunchok miya, kuprikcha va o`rta miya birgalikda miya sonini hosil qiladi. Undan 12 juft kala suyagi – miya nervlvri chikadi. Nervlar miyani boshda joylashgan sezgi organlari, muskul lar va bezlar bilan boglaydi. Nervlarning bir jufti-adashgan nerv miyani ichki organlar: yurak, upka, oshkozon ichaklar bilan boglaydi.

Barcha retseptorlardan chikadigan impul'slar **oralik miya** orqali utib, katta yarim sharlar pustlogiga keladi. Yurish, suzish kabi murakkab xarakatlar reflekslarining kupi oralik miyaga boglik. Uning yadrosi turli ichki organlar ishni muvofiklashtiradi. Oralik miya moddalar almashinuvi, ozik moddalar va suv istemol qilishni, tana temperaturasi doimiy bulishini boshqaradi. Oralik miya ayrim yadrolarning ne`ronlari biologik aktiv moddalar ishlab chikarib, gumoral boshqaruvni amalga oshiradi.

Oralik miya kadoksimon tana bilan gumbaz ostiga joylashgan bo`lib, ikki yon tomonda kata yarim sharlar bilan kushilib ketgan.

Shunday qilib, bosh miyaga ta`lukli barcha ma`lumotlar bilan tanishib chikildi. Talabalar bosh miya bo`limlarini ketma-ket shaklda Laboratoriya daftarlariga yozadilar.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar: Mavzuga oid rasmlar al`bomingizga chizing? Bosh miyaning xar bir bo`limlarini mulyaj, planshet, maketlardan joylashgan o`rnini hamda kurinishlarini tushintirib kursating va chizib oling?

Laboratoriya № 26

Mavzu: Bosh miya yarim sharlarining tuzilishi, peshona, chakka, tepa, ensa soxalarini tuzilishi.

Darsning maksadi: Bosh miya yarim sharlarining tuzilishi, vazifasi, ahamiyati xususiyatlarini urganish hamda peshona, chakka, tepa, ensa bo`limlarini tuzilishi, vazifasini ham urganish.

Oxirgi miya birinchi miya pufagidan hosil bo`ladi (telen cephalon), juda rivojlangan juft qismlar – ung va chap yarim sharlar (hemispherium) dan hamda ularni bir-biri bilan tutashtirib turadigan o`rta qismdan tashqil topgan .

Kerakli asboblar: planshet, plakat, tablica, mulyaj, manet, qog`oz, qalam, chizg`ich, o`chirg`ich.

Ishning borishi: Laboratoriya darsi ma`ruza darsi asosida olib boriladi, ya`ni bosh miya yarim sharlari va uning bo`limlari haqida barcha ma`lumotlar va kunikmalar berib tushintiriladi.

Odamda miyaning katta yarim sharlari (ung va chap) kuchli rivojlangan bo`lib, o`rta va oralik miya urab turadi. Yarim sharlar uzunasiga ketgan tirkish bilan ikkiga ajralib turadi, usha tirkichning ichkarisida ikkala yarim sharni bir – biriga tutashiradigan tolalardan iborat ok modda plastinkasi – kadoksimon tana (corpus collosum) yotadi. Kadoksimon tana tagida gumbaz bor, u o`rta qismi bir – biriga tutashgan, oldingi va orqa tomoni esa ikkiga ajralib, gumbaz ustunlari va Oyoqchalarini hosil qiladigan tolali ikkita bukik toladan iborat.

